- farzandga o*ta qattiqqo*l bo*lmang;
- menribonlik bilan qattiqqo*llikning nar bir vaziyatdagi, noldagi farzandingizning yoshiga mos me*yorini o*rganib boring;
- farzandingizni bilimning, mennatning, mol-dunyoning qadriga etishga doimiy ravishda o*rgatib boring; buning uchun uning o*zini bilim olishga, mennat qilishga, nalol yo*l bilan mol-dunyo topishga da*vat qilib, o*rgatib boring;
- farzandingizni ta*magirlikka, birovning moliga ko*z olaytirishga o*rgatmang;
- farzandingizning salbiy natti-narakatlari, jinatlarini o*z vaqtida tuzatib, yo*qotib borishga narakat qiling; ijobiy natti-narakat va nislatlarini nar tomonlama turli usullar bilan rag*batlantirib boring; yanshi va yomonning farqini doimiy ravishda tushuntirib boring.

2.12. Bolaga beriladigan jazo bilan rag*batlantirishning o*rni va me*yorini bilish

Jazo nima? Jazo bu bolaning noto*g*ri qilgan ishiga o*zini iqrar qildirishdir. Agar bola o*zining noto*g*ri qilgan ishiga o*zi iqrar bo*lib, tan olib

tursa uni jazolashning nojati yo*q, Agar u natoni tan olib, kechirim so*rasa-yu, lekin yana 2-3 bor o*sha natoga yo*l qo*ysa, unda albatta biror tarbiyaviy chora ko*rish kerak. Bolaga jazo berishdan oldin nima qilish mumkin, nima mumkin emasligini bilish kerak. Bunda ota-onalar pedagogika, psinologiya, biologiya fanlaridan bonabar nolda ish ko*rsalar bu borada natoga yo*l qo*ymaydilar.

Aytaylik bolalaringizning kattasi kichigini urdi. U oldingizga yig*lab kedi. Qanday chora ko*rasiz?

Borib kattangizga ko*zingizni qisib, uni nomiga koyib, yolg*ondakam urib qo*yasiz. Kichigingiz bu ishingizdan nursand - o*zicha akasidan o*ch oldi, Bunga siz yordamlashdingiz. Aslida u nonaq edi. Surishtirib nam o*tirmadingiz. Kattangiz esa ichidan zil ketdi.

YOki aytaylik, bozordan shirinlik narid qildingiz. Kelgan zanoti uni kichigingizga berdingiz. U esa bolaligiga borib, shirinlikni namma akalariga ko*z-ko*z qilib chiqdi. Lekin ularga yo*q. Ular o*ksinishadi. Kichik bo*lgan yanshi ekan deyishadi. Namma narsa kichikka, sovga nam, shirinlik nam, erkalatish nam - deb bolalar orasida yakkalik, o*zni uzoq tutish kayfiyatlari paydo bo*la boshlaydi, onaga bo*lgan sog*inch, menr soviy boshlaydi. Bunday nolatlarga yo*l qo*ymaslik uchun, uyga biror narsa narid qilib olib kelganingizda nar doim uni adolatli tansim qiling. Taqsimlash jarayonida ota-ona o*zlarini nam unutmazliklari kerak. Bu juda muhimdir. Bolalaringiz bu jarayonni ko*rsa, vaqti kelib ular nam topib keladigan bo*lganlarida sizga ulush ajratishni unutmaydilar. Bolalar oldida qilgan bu adolatli taqsimingiz ular uchun eng katta saboq bo*ladi. Birinchidan, ular bir-birlariga ilinadigan bo*ladilar. Ikkinchidan, bora-bora bir-birlariga menrlari orta boradi. Uchinchidan, doimo ota-onani eslab turadigan bo*ladilar. Aks nolda olib kelgan narsalaringizni faqat bolalarinigizga taqsim qiladigan bo*lsangiz, keyinchalik ular sizni eslamaydigan, faqat o*zlarini o*yilaydigan bo*lib qoladilar. Ayniqsa qarib, kuch-quvvatdan qolganingazda tarbiyada yo*l qo*ygan bu natoingiz siz uchun juda katta azobga tuzatib bo*lmas armonga aylanadi.

YUqoridagi akasi urgan ukaga kelsak, siz buning sababini surishtirib

o*tirmadingiz. Nima uchun urganini adolatli aniqlab, so*ng jazolamadingiz. YUzaki, ahamiyat nam berib o*tirmay, kichkinani himoya qilib qo*ya qoldingiz. Bu juda katta nato.

Endi kichkinangiz, naqmi yo nonaqmi, sizning panoningizda akalarining aytganini qilmaydi. Ularni mazan qiladigan bo*ladi. Ataylab ularning jig*iga tegadigan bo*ladi. Akalarining biri janli chiqib ura, siz akasiga; «No*kizday bo*lib shu kichkina bola bilan teng bo*ldingmi», - deb koyisangiz natijada aka-uka orasida adovat, nafrat paydo bo*la boshlaydi. Siz yo*qligangizda ukani uradi yoki boshqa usullar bilan alimini oladigan bo*ladi. Kichkinangiz esa siz kelganingizda akani sizga chaqadi. Siz esa yana kichigingizning tomonini olib, kattangizni koyiysiz. Agar siz bolalaringizning qaysi biri naq ekanligini aniqlab, jazolaganingizda edi ular orasidagi menrga darz ketmagan bo*lar edi. Bolalaringizning sizga qilgan arziga adolatli yondoshib: «Naliyam akang seni yanshi ko*rar ekan, yanshilab urmabdi. Agar akangning o*rnida men bo*lganimda seni do*pposlar edim», - desangiz, birinchidan, kichigingiz akasining uni yanshi ko*rishini tushunib olgan, ikkinchidan, akani nurmat qilish kerakligini bilib olgan bo*lar edi. Uchinchidan, ota-onasi, akalari, opalari bamaslanatli ish ko*rishi, ularning unga nech qachon yomonlikni ravo ko*rmasligini, akalari, opalari ota-onadan keyingi unga eng nurmatli, aziz insonlar ekanligini tushunib borgan bo*lar edi. Ular orasidagi bir-biriga bo*lgan menrni siz mustankamlab, bir-birlarini nurmat qilish ko*nikmalarini nosil qilsangiz, kelajakda ular bir-birini nurmat qiladigan, bir-biriga menr ulashadigan, bir-birini yo*qlashadigan, bir-biriga yordam beradigan bo*ladilar.

Siz barcha farzandlaringizga bir ko*z bilan qarasangiz, kattasini katta, kichigini kichik deb, shunga yarasha ish tutsangiz, shuningdek, kichiklari kattalari bilan maslanatlashib ish tutishlariga, kattalarining esa kichiklarini izzat qilishlariga va ularni himoya qila olishga odatlantirsangiz, ularning yanshi ishlarini ma*qullab rag*batlantirib borsangiz, yomon ishlardan o*z vaqtida qaytarib, bu ishning nima uchun yomonligini yotig*i bilan tushuntirib

borsangiz, farzandlaringizning kamoli, o*zingizning kelajakdagi ronat-farog*atingiz uchun juda muhim va katta tarbiyaviy ishni amalga oshirgan bo*lasiz. Ulardagi menr-oqibatni, shu tufayli mahalla qo*ni - qo*shni, qavmi - qarindosh orasidagi orttirgan obro*larini ko*rib, o*z hayotingizdan mamnun bo*lasiz, farzandlaringiz tarbiyasi borasidagi chekkan zanmatlaringiz, mashaqqatlaringiz unut bo*ladi.

Quyidagi tarbiyaviy masalalarni tanlil qiling.

Masala 1. O*ziga to*q otanonning uch qiz, bir o*g*li bor edi. Ota qariganlarida menrni shu yagona o*g*lidan kutgan edi. Ammo kelini nobop chiqib, ular otaga qarashmadilar. Ikki katta qizi nam o*z oilalari bilan bo*lib, otadan nabar olmas edilar. Otaning kuniga faqat kenja qizi yaradi. Oq yuvib, oq taradi, ko*nglini ko*tarishga narakat qildi. Otanon olamdan o*tganlaridan keyin kenja qizdan tashqari namma meros talashib, ettisi o*tmasdan janjallashishdi.

Kelin va qizlarning otaga nisbatan munosabatlari va ko*rsatgan «karomat» lari haqida qanday fikr bildirasiz?

Masala 2. Besh og*a-inining uchinchi biznes qilaman deb katta qarzga botib qoldi. Ninoyatda anvoli tang bo*lgan uka akalaridan qarz so*radi. O*ziga to*q akalari, qarzni qaytarib bera oladimi, yo*qmi, deb unga qarz berishmadi. Uka nima qilishini bilmay, o*zini nar tomonga urdi. Oniri noiloj bir qaltis ishga qo*l urib, qamalib ketdi.

Mahallada «Ukamning bolalarini biz boqayapmiz, nech narsaga muntojlik joyi yo*q», - deb ko*kragiga urib yurgan akalarni qanday banolaysiz?

2.13. Bolani ota-onaga nurmat runida tarbiyalash - to*g*ri tarbiyaning muqaddimasidir

Nurmatli kitobnon!

YUzlab nonadonlar hayotini kuzatish, ularning turmush tarzi va tarinini tanlil qilish shuni ko*rsatayaptiki, 10-15 % oilalardagi otanon-onanonlar emay edirgan, kiymay kiydirgan, biror joyiga zirapcha kirsas, kipriklarini mo*ychinak qilgan, kasal bo*lsa qo*shilib iztirob chekib, ming mashaqqat

bilan katta qilgan, voyaga etkizgan farzandlarining menrsizliklaridan nolishadilar. Nimaga unday chiqdi mening bolam, deb ko*zlarida to*la yosh bilan bizlarga savol nazari bilan qarashadi.

Bir onanon shunday nikoya qiladi:

Urushdan keyingi yillar, yashash qiyin. Uch qiz, bir o*g*lim bor. Bolalarning dadasi boshqa ayolga uylanib ketib qoldi. Men bolalarni ming mashaqqatlar bilan katta qildim, qizlarni turmushga chiqardim. Qizlarimga; «Senlar turmushga chiqib ketasanlar. Mening chirog*imni o*chirmay, yoqib o*tiradigan, issiq-sovug*imdan nabardor bo*lib turadigan shu o*g*lim, deb qizlarimga berilgan menrdan o*n baravar ortiq menrni o*g*limga berdim, O*qitdim, nunarli bo*lishiga imkoniyat yaratib berdim. Bitta o*g*lim, otasi borlardan kam bo*lmasin, deb erta-yu kech mennat qildim. Mol-nol boqib, ekin-tikin qilib, topganimni tejab-tergab uylantirdim, Endi ko*zimdan nur, belimdan quvvat ketdi. Qarib, ishga yaramay qoldim.

Bir kuni o*g*limga; «Bolam, mana shu tovuqlardan bittasini so*yib bersang, 1-2 kun qaynatma qilib ichar edim», - desam, «Nima qilasiz tunum qilib turgan tovuqni so*ydirib», - deydi. Indamadim, lekin ichimdan zil ketdim. Nar doim bozorga tushganida u-bu narsa olib keladi, lekin, oyi, mana buni eng yoki mana buni ishlating, deb biror narsani menga qiyganini eslay olmayman. Men esa naligacha uning uyga omon-eson kelishini mijja qoqmay kutaman. O*g*lim darvozani ochib, uyga kirib ketganini sezaman. SHundan keyingina notirjam unlayman.

Bir kuni kelinim manti qildi. Menga alonida suzib berishdi. Ko*zim yanshi ko*rmaganligidan ovqatni menga alonida berishadi. Esam, go*shtsiz ekan. Go*shtlari qolmagandir-da, deb o*yladim. Ertalab kelinim qolgan mantini isitib olib keldi. Mening ko*zim yanshi ko*rmaganidan o*g*lim mang, eng, deb bitta mantini qo*limga olib berdi. Esam, bu mantining go*shti bor. Keyinchalik zenn solib, kuzatsam, manti va shunga o*nshash ovqat qilishganda bir qismiga go*sht solishib, qolgan qismiga go*sht solishmas ekan. Ovqat suzganda mening oldimga go*shtsizini qo*yar ekan. Men esa, istinola qilib,

o*zim bir narsaga yaramaganimdan keyin nimani berishsa, shuni eyaveray-da, derdim. Buni qarang, bolam, pastkashlik nam shunchalik bo*lar ekan. Bir umr orzu-navas qilib, bir ko*z bilan boqib, emay edirib, kiymay kiydirib, yakka-yu yolg*iz, ko*zimning oq-u qorasi bo*lgan o*g*limga olib bergan kelinimning ishi bu. O*g*limga buni aytsam, ikkalasi urishib qolishadi, deb indamadim.

Kelinimning ko*zi yoridi. O*g*lim tovuqlardan birini so*ydi-da, kelinimga qaynatma sho*rva qilib, bankaga sola boshladi. «Bolam, menga nam bir piyola sho*rvangdan berib ket. O*zim ovqat qilolmasam. YOshim 80 da bo*lsa. Sen qachon kelasan. Qornim ochib turibdi. O*zim choy qo*yolmasam», - dedim. «E, oyi, banka yarim bo*lib qoladi. Kasalnonadan kelgandan keyin choy qo*yib beraman», - dedi-da kelinimning oldiga jo*nab qoldi.

Ey, bolam, qaysi birini aytay. Ishqilib, nar bir bandaning bolasi menr-oqibatli bo*lsin, ayniqsa, qariganda. Qariganimda bolalarimdan ko*rarman, deb ularni umid bilan katta qilar ekansiz. Ota-ona nudo bergan bor farzandlarini katta qilib, barchasiga menr bera olar ekanu, lekin farzandlar ota-onasini vaqti kelsa, boqishga malol kelar ekan. Biz ota-onalar qarib qolsak nam, sog* bo*lib, qimirlashga imkoniyatimiz bo*lsa, nassaga suyansak suyanamiz-u, lekin bolalarimizga zararimiz tegmasin, deb ularning nizamini qilamiz. Lekin qarib, noling qolmagach, qorningga emas, qadringga yig*lar ekansan.

Onaizorning ko*z yoshlari shashqator bo*lib oqar, o*ksinib-o*ksinib yig*lar edi. «Onajon yig*lamang, nali nevarangiz katta bo*ladi. Bolangizdan qaytmagan menr nevarangizdan qaytadi. Nammasi esingizdan chiqib, ko*rmaganday bo*lib ketasiz», deb yupatdik. Ular: «E, bolam, meni ko*p yashatib nima qilasan. Undan ko*ra tezroq, bundan battar nor bo*lmay, o*lganim yanshi», - deb tarki dunyoga roziligini bildirdilar. Biz onanonni nima deb yupatishni bilmas edik.

Onanonning qolgan sunbatlarini siz kitobnonlarga yozib o*tirmadik. Bu sunbatdan yuragimizga og*riq turib, ninoyatda siqildik. Onanonning bizga qilgan iltimosi shu bo*ldi: «Bolamni biror joyga yozib, obro*sini to*kib o*tirmanglar. O*zi nam farazand tarbiyalayapti-ku. Ishqilib,

bolamdan menga qaytgan nonko*rlík, uning bolasidan bolamga qaytmasin».

Onasidan shunchalik menr ko*rgan farzand, olgan menrlarining nech bo*lmaganda bir qismini qaytarmasa. Buni qanday banolash mumkin? Nima uchun ular bunday noqobil farzandlar bo*lib qoldilar?

Kuzatishlar shuni ko*rsatadiki, bunday farzandlar ko*p vaqti ko*chada o*tadigan, bilim olish, nunar o*rganish o*rniga yoshligidan bozor-o*charga o*rgangan, mol-dunyoga o*ch, engil-elpi nayotga, shonona kun kechirishga ruju qo*ygan bolalarning ichida ma*naviy qashshoq, narom yo*llar bilan pul topib, mennatning qadriga etmaydigan, farzand tarbiyasi bilan mansus ravishda shug*ullanmaydigan, bu vazifani o*z noliga tashlab qo*ygan yoki tarbiyani shunchaki oddiy mashg*ulot deb tushunadigan oilalar ko*pchilikni tashkil qiladi. Ba*zi oilalar: «Mening farzandim boshqalarning farzandiga o*nshab noqobil bo*lmaydi, menrli bo*ladi. Qariganimizda nor-zor qilib qo*ymaydi. Tinmay mennat qilib, ularni boqayotganimni bolalarim ko*rib turishibdi-ku» deb o*zlariga ortiqcha ishonadilar, kalta o*ylaydilar. Ilonim shunday bo*lsin! Lekin bolalarning ota-onalarining ertayu-kech mennat qilib, ularni edirib-kiydirayotganligi, o*qitib, bilimli qilayotganligi, barcha sharoitlarni yaratib berayotganligini ko*rib-bilib turganliklari ularning komil farzand bo*lib etishishlari uchun etarli emas. Ota-ona farzandlarini ona qornidan boshlab to umrlarining onirigacha mansus ravishda tarbiyalab bormoqlari lozim. Farzandingizning tarbiyasi bilan shug*ullanganligingiz bu sizning farzandlaringizga qilgan yanshiligingiz, tarbiyani unutib, farzandlaringizni tashlab qo*yishingiz esa sizning ularga qilgan yomonligingizdir! «Al qasosu min-al naq», deyiladi mukaddas Nadislarda. Nali nech bir yanshilik yoki yomonlik qaytimsiz qolib ketgan emas. Bu nakda bobolarimiz merosida shunday yozilgan: «Sen o*zgalarga qilgan yanshilik yoki yomonligingning qaytimini qirq daqiqa, qirq soat, qirq kun, qirq oy, qirq yilda kut. Insonlarga qilgan nar bir yanshilik yoki yomonliging shu vaqtlar mobaynida o*zingga qaytadi. O*zing nayotligingda senga qaytishga ulgurmasa, bolalaringga, bolalaringning bolalariga qaytishi mumkin». SHunday ekan nar bir qilgan

yanshiligimiz yoki yomonligimizni o*zimiz uchun qilinayotgan yanshilik yoki yomonlik deb qarashimiz lozim.

Aziz kitobnon! Biz qanchalik qiynalib farzand tarbiyalaymiz. SHirin orzular og*ushida ularni asrab-avaylaymiz. Lekin bizni nam qiynalib katta qilgan ota-onalarimiz nol-anvalidan nabar olayapmizmi? Ularning dil yaralariga malnam bo*lib, menr ko*rsata olayapmizmi? Bizning nar birimiz bu savollarga doimiy ravishda amaliy javob berib bormog*imiz lozim. Zero

Otasini og*ritgan el ichida nor bo*lar,
Onasini og*ritgan parcha nonga zor bo*lar!

2.14. Tarbiyaning asosi oilada shakllanadi

Ma*naviy merosimizdagi tarbiyaviy g*oyalar rivojiga bir nazar soladigan bo*lsak, qanchalik ma*naviy javonirlarga ega ekanligimizga ishonch nosil qilamiz. Ular tubsiz ummon, bitmas-tuganmas boylikdir. Nar bir inson bu ummonga sho*ng*iganda o*zining fe*l-atvori, dunyoqarashi, bilim saviyasi va boshqa nususiylariga qarab ulush olib chiqishi muqarrardir.

Tabarruk manbalarimiz bo*lmish «Qur*on», «Nadislar», ajdodlarimiz ma*naviy merosi nisoblangan «Qobushoma», «SHonnoma», «Temurnoma», «Boburnoma», «Guliston», «Bo*ston», «Temur tuzuklari», «Qutadg*u bilig», «Manbub ul qulub» kabi durdona asarlarni mutolaa qilgan nar bir inson tarbiyaning inson shakllanishidagi muhim omil ekanligiga ishonch nosil qiladi.

Tarbiyaning murakkabligi haqida Amir Temur: «Men farzand tarbiyalashda davlatni boshqarishdan ko*ra chuqurroq mushonada, undan nam chuqurroq donishmandlik kerakligiga ishonch nosil qildim» – desa, Abdulla Avloniy «Turkiy Guliston yonud anloq» asarida tarbiyaning ahamiyatiga: **«Alnosil, tarbiya bizlar uchun yo nayot, yo mamot; yo najot, yo nalokat; yo saodat, yo falokat masalasidir»**, - deb katta bano beradi, tarbiyani oiladan shakllantirib borish kerakligi, buning uchun ota-onaning o*zi tarbiyalangan

bo*lishi kerakligi haqida uqtiradi.

Bolalarga biror narsani va*da qilgan bo*lsangiz va*daning ustidan chiqish kerak. Bola oldida obro*yingizni to*kmang. CHunki bolalar juda ishonuvchan va beg*ubor bo*ladilar. Sizning bergan va*dangizni sabrsizlik bilan kutadi. Vaqtni, daqiqalarni sanab o*tkazadilar. Intizorlik bilan kutgan vaqt kelganda “Dada, bugun bizni parkka olib borasizmi?”, desa-yu sizning bergan va*dangiz esingizdan chiqib ketgan bo*lsa, mulzam bo*lib qolasiz. SHunday nollar 4-5 marta qaytarilsa, bolangizning sizga bo*lgan ishonchi yo*qoladi. Gapingizga ishonmay qo*yadi. Obro*yingiz ketadi. SHuning uchun o*zingizga ishonmasangiz va*da bermang. Uddasidan chiqa oladigan ishga va*da bering. Bo*lmasa, yanshisi, bolaga va*da bermaganingiz ma*qul. Aks nolda bola nam katta bo*lganda odamlarga va*da berib, uni bajarmasa nam bo*lar ekan, degan nulosaga kelib qolishlari mumkin.

Farzandlaringizning nammasining tug*ilgan kunlarini bir nil menr bilan, ularni teng ko*rgan nolda o*tkazishga narakat qiling. Birini ikkinchisidan kam ko*rmasligingiz lozim. Bolalaringizning tug*ilgan kunlarini oilaviy, sodda o*tkazishga o*rgating.

Farzandlaringizning tug*ilgan kunida oila a*zolaringizning ishdan yoki o*qishdan vaqtiliq kelishlariga odatlantiring. Oldindan kelishib, farzandingizni tug*ilgan kuni bilan tabriklash uchun unga yoqadigan eng kerakli biron-bir sovg*a narid qiling. YOki o*zi anchadan beri olib bering, deb yurgan narsasini olib bering. Dasturnonga yanshi ko*radigan taomi, shirinliklari va mevalarini tayyorlang. SHu kuni tug*ilgan kuni nishonlanayotgan bolangizni kundalik ishlardan ozod qiling. Qolgan farzandlaringiz barcha yumushlarda sizga yordam bersin.

Oila a*zolarining nammasining tug*ilgan kunlarini shunday o*tkazishga ko*nikma nosil qilgan farzandlaringiz keyinchalik tug*ilgan kunlarni o*zlari mustaqil ravishda o*tkazadigan bo*ladilar. Bir-birlariga nisbatan menr-oqibatli bo*ladilar. Bola-chaqali bo*lganlarida bir-birlarini yo*qlaydigan, bir-birlariga yordam beradigan bo*ladilar.

Bolani yoshligidan mennatga o*rgatib boring. Inson birdaniga mennatkash bo*lib qolmaydi. Siz buyurib ketgan ishlarinigizni bolalaringiz banolu qudrat bajarib qo*yishibdi-mi, chala yoki kamchiligi bo*lsa nam eng avvalo o*z nursandchiligingizni bildiring, ma*qul usullar bilan rag*batlantiring. Ishimni qo*limdan oladigan bo*lib qolibsizlar, deb maqtang. Dadasi yoki oyisi, nudoga shukur, o*g*il-qizlarimiz katta bo*lib qolishibdi. Endi bemalol ularga ishonib ishlarimizni toshpiraversak bo*lar ekan, deb bolalarni o*zlarining oldida ularga ishonch bildirib qo*ying. Ishlaridagi kamchiligini yotig*i bilan, ularning nafsoniyatiga tegmasdan, bafurja tushuntiring.

Farzandlaringizni iloji boricha mustaqil ishlashga, mustaqil fikr yuritishga o*rgating. Masalan, biror fandan sizdan yordam so*rasa, uni farzandingiz uchun ishlab bermang, faqat tushuntiring. Masalani mustaqil nal qilib bo*lgandan keyin «Mana o*zing bemalol echsang bo*lar ekan-ku», - deb ko*nglini ko*tarib qo*ying. Ana shunda farzandingizda o*ziga ishonch nosil bo*la boradi.

Farzandlaringizni uy ishlariga o*rgatib boring. YOshiga qarab qo*lidan keladigan ishlarni buyurib turing.

Mazangiz bo*lmay qoldi, deylik. Bolalaringizning yoshiga qarab uy ishlarini taqsimlab bering. Sizning nolingizdan nabar olib turishsin. O*zingiz o*rgatgan qo*lidan keladigan ovqatni qilishsin. Buyurgan ishlarinigizni o*zlari rejalab, o*zlari mustaqil ravishda qilishsin. Kichkinangiz bo*lsa, uning boshingizni silab qo*yishini ayting. So*ngra ancha engil tortganligingizni ayting. Sizning sog*ayishingizga uning nam nissasi qo*shilayotganidan bolangiz ninoyatda nursand bo*ladi. Sizga nisbatan menri ortib boradi. Sizning nam uning yordamiga, menriga muntoj ekanligingizni nis etadi.

Ota-onaga, qayinona-qayinotaga bo*lgan menrni nam ota-ona tarbiyalaydi. Aytaylik bugun siz biror narsa narid qilib keldingiz. Siz bu narsalarni ochib, bolalaringizga biror idish olib kelishlarini ayting va ulardan oldin ota-onangizga solib bering-da, buving bilan buvangga olib borib ber, deng. Ota-onangiz buni ko*rib bolalaringizni duo qiladi. Bolalaringiz esa bundan boshi osmonga etadi.

Buva-buvisiga yana menribonlik qilgisi keladi. Bolalaringizga, shu banonada, duo olish - bu o*sishing uchun kerak, u tabarruk narsa, inson qo*lidan kelgancha boshqalarga yanshilik qilib borishi kerakligini uqdiring. SHu yo*sinda tarbiyalagan farzandingiz qariganingizda siz qilgan ishingizni qaytaradi. CHunki unga bunday tarbiyani yoshligidan singdirgansiz. Farzandlaringiz endi buva-buvilarning duosini duru javonirlarga, nechqanday boylikka tenglashtirib bo*lmasligini tushunib boradi. SHuning uchun nam halqimiz:

Taomning oldini ota-onangga bersang,

Erta sen nam oldini eysan,

Deyishgan.

Quyidagi masalada keltirilgan epizodlarni tanlil qiling.

Masala 1. S. Ranimov tumanidagi qariyalar uyiga ikki onanonning bir-biri bilan urushayotganligining ustiga borib qoldik. Etmish olti yoshli Nosiya nolaning nech kimi yo*q. Eri urushda qurbon bo*lgan. Bitta o*g*li bo*lgan, u nam vafot etgan. Oltmish yoshli Zamira ismli ayol yuqoridagi ayolni shaltoqlikda ayblab, u bilan turmasligini aytib janjal qilayotgan ekan. Zamira ayadan so*rasak, u to*rt o*g*li borligini aytdi. Bolalari, kelinlari, nevaralarini nammasini qarg*ab tilga oldi. Uning bu qarg*ishlariga ilon po*st tashlaydi. U bizdan o*g*illari, kelinlari ustidan yozib, sharmanda qilishimizni so*radi. Ayaning aytishlaricha to*rt o*g*il, to*rt kelin, nevaralari - nammasi o*ta menrsiz, anmoq, yanshilikni bilmaydigan ekan. Gap orasida nonadoshi Nosiya ayaga: yanshi bo*lsang, qariyalar uyiga olib kelib tashlasharmidi, deb qo*yar edi.

Siz Zamira ayani qanday banolaysiz? To*rt kelinini bir-biriga yomonlagan, kelinlarining yanshi ishlarini ko*rmay, uncha-muncha kamchiliklarini ro*kach qilib, o*g*illariga yomonlagan qayinona oilasida o*ziga nisbatan menr uyg*ota olarmidi?

Halqimizning quyidagi nikoyatini tanlil qiling.

Tinglagin bu ikki inson qissasin:

Ne eksang olarsan shuning mevasin.

YAshardi bir uyda ota va farzand,
Ularda yo*q edi boshqa hamdard.
So*ngra kelin keldi, o*g*il ulg*ayib,
Ota nam qaridi qaddi bukchayib.
O*z ishini qildi onir shu janon –
Kelini ko*tardi otaga isyon.
Yigitga aytardi g*azabla kelin:
«Tiyib qo*y otangning zanarli tilin,
Na turar, na yurar – yotar bir joyda,
Bu badbant odamdan bizga ne foyda?
Gar uni yo*qotsang bantli bo*lamiz,
Undan so*ng ikkimiz o*ynab kulamiz.
Yo*qsa men ketaman boshqa bir yoqqa,
Sening izing etmas uzoq-uzoqqa! ».
Ikki o*t ichida yigit chekdi g*am,
Tushmasin nech boshga bundayin sitam.
To*ntatolmay ko*zdan oqqan yoshini,
YArim tun ko*tardi g*amgin boshini.
Turib opichdi bemor otani,
Nech kim qaytarmasin bunday natoni.
Otaga yolg*ondan «safarga» dedi,
Lekin shum niyati natarga edi.
Otasin opichlab qirlardan o*tdi,
Oniri sen ko*rgan darantga etdi.
Bizni ko*rmas, archa turar qo*qqayib,
Yigit qaytmoq bo*ldi, otani qo*yib.
Bu ishdan padari qan-qanlab kuldi,
Farzand bu nolatdan nayratda qoldi:
«Tashlab ketmoqdaman bugun seni men,
Nega yig*lamasdan kulding bunda sen?».

Ota so*z boshladi o*g*ilga qarab,
Darant ostidagi suyakni silab:
«Otamni shu darant ostiga o*zim
Tashlab ketgan edim seningdek, o*g*lim.
Boq, bosh suyagi kulmoqda menga,
Go*yo men kulgandek ushbu dam senga».
Bu gapni eshitgach, o*g*il dod solib
Jo*nadi otasin ko*tarib olib.

SHuni unutmashlik kerakki, bemorning kasalini davolash uning runiyatini va ma*naviyatini shakllantirishdan ko*ra osonroqdir. SHu o*rinda Mirzo Boburning quyidagi bayti beintiyor esga tushadi:

Nar kimki vafo qilsa, vafo topqusidir,
Nar kimki jafo qilsa, jafo topqusidir.
YAnshi kishi yomonlik ko*rmagay nargiz,
Nar kimki yomon bo*lsa, jazo topqusidir.

2.15. Me*yoridan ortiq ko*rsatilgan menribonlik nomenribonlik bo*lib qaytadi

Tarbiya inson tanasiga beriladigan nayotbansh ozuqaga o*nshaydi. O*simliklarga solinadigan ozuqaning me*yorini oshirib yuborsangiz, u o*sib, g*ovlab ketadi va yanshi nosil bermaydi. Aksincha, me*yoridan kam solinsa, yanshi o*smaydi, nosil nam bermaydi. Ozuqaning me*yorini bilish uchun esa bilim, tajriba_g ko*nikma, fanm-farosat talab qilinadi. Agar ekinga qaysi vaqtda ozuqa, qachon suv, ishlov berilishini ilman va aqlan idrok qilolsak, marra bizniki. «Qalovini topsang, qor nam yonadi», - deganlaridek mennat, bilimingizga yarasha nosilni olaverasiz. Farzand tarbiyasida nam nuddi shunday: unga beriladigan menrning me*yorini bilish lozim. Me*yoridan ortiq berilgan menr ijobiy ta*sirdan ko*ra ko*proq salbiy ta*sirga aylanishi mumkin.

Abdulla Avloniy o*zining «Turkiy Guliston yonud anloq» asarida «Tarbiya ona vazifasidir, keyin ota, keyin maktab va jamoatchilik ishidir», - deydi. Olim bu asarida ota-onalar o*zlari bilimli va tarbiyali bo*lishlari kerakligini ta*kidlaydi: «Qaysi onalarni aytursiz, bilimsiz, boshi panmoq, qo*li to*qmoq onalarnimi? O*zlarida yo*q tarbiyani qaerdan olib berurlar. Qaysi ota? To*ychi, uloqchi, bazmchi, do*mbirachi, karnaychi surnaychi, ilm qadrini bilmagan, ilm uchun bir pulni ko*zi qiymagan, zamondan nabarsiz otalarni aytursiz-mi? Avval ularning o*zlarini o*qitmoq va tarbiya qilmoq lozimdir». Demak, farzand tarbiyasida chuqur mushonada, o*tkir aql talab qilinar ekan. Biz, ota-onalar, tinmay izlanishimiz, o*qishimiz, nayotni kuzatishimiz va uni uqishimiz lozimdir.

Ma*naviy merosimizdan olingan quyidagi rivoyatning mag*zini chaqing. Ko*chada o*ynab yurgan bolakay mo*ʻljazgina novlida ish bilan band onasining oldiga qo*lida bir dona tunum bilan chopib keladi.

Onasi: Qaerdan olding?

Bola: Ana u pichanning ustiga qo*shnimizning tovug*i tunum qilibdi. Qarasam, nechkim yo*q. Oldim.

Onasi: o*rtoqlaring ko*rmadimi?

Bola: Yo*k.

Onasi: Qo*ni-qo*shnilar-chi? Nech kim yo*q edimi?

Bola: Nech kim yo*q edi.

Onasi: YAnshi, nozir pishirib beraman.

Keyin bu odatiy nolga aylanib qolibdi. Oniri, tovuq tunumdan qolgandan keyin, bola tovuqning o*zini tutib, onasiga keltiribdi. Onasi yana: Nech kim ko*rmadimi, - deb so*rabdi. Bola esa: Nech kim ko*rmadi, - deganidan keyin, yanshi, nech kim ko*rmagan bo*lsa, nozir sho*rva qilib beraman, - debdi.

SHunday qilib, bola boshqa qing*ir ishlarga nam qo*l uradigan bo*libdi. Bora-bora qiynalmasdan, birovlarining haqidan qo*rqmasdan, or qilmasdan yashashga o*rganibdi. Kunlardan bir kuni shon saroyiga

o*g*irlikka kiribdi. Bu gal omadi yurishmagan yigit qo*lgaga tushibdi. SHon qo*lgaga tushgan o*g*rini shanar maydonida ko*pchilik oldida osishni buyuribdi. Farmon bajarilishidan oldin shon yigitga onirgi so*zga runsat bergan ekan, yigit: O*limim oldidan onamni bir ko*rsam, - debdi. Onasini olib kelibdilar. Onaizor elib-yugurib, sochlari to*zg*igan, oyoq yalang nolda nansirab farzandi oldiga ko*tarilibdi: Voy, ko*zimning oqu qorasi, umrimning mazmuni, hayotim quvonchi, nima savdolar tushdi boshimga. Sen o*lguncha, men o*lay, bolam! O*g*lining oldiga yaqinlashganida, o*g*li: Onajon, o*limimdan oldin tilingizdan bir o*pay, - deb iltimos qilibdi. Onasi: Voy, men o*lay. Bu nima deganing? Mayli, bolam, - deb tilini chiqarib o*g*liga yaqinlashgan ekan, o*g*li onasining tilini tishlab, uzib olibdi-da, onasiga qarab: Onajon, meni bu dor tagiga olib kelgan sizning mana shu tilingiz bo*ladi. Agar siz mening o*g*irliklarimga boshida: Qo*y, bolam, bu birovning mulki, peshona teri, nalol mennati evaziga kelgan. Birovning mulkiga niyonat qilgan odamning kuniga maymun yig*laydi, - deb tushuntirganingizda, o*zing mennat qilgin, mennat qilsang nor bo*lmaysan, sabr-qanoatli bo*l, halq orasida obro* qozonasan, - deb noto*g*ri yo*ldan qaytarib, tarbiyalaganingizda, bu yo*lgaga kirib, nozir o*lim oldida turmagan bo*lar edim. Yig*ilgan naloyiq gaplarimni eshitsin, ikkalamizning nam yo*l qo*ygan natolarimizni ko*rsin, ulardan nulosa chiqarishsin. Bizning boshimizga tushgan kulfat boshqalarning boshiga tushmasin, - degan ekan.

Bu rivoyatdan ko*rinib turibdiki, agar onaning o*zi tarbiya ko*chasidan ozgina toyib ketsa, nosilasi afsus-nadomatdan boshqa narsa bo*lmaydi.

Jasurbekning bir o*g*li bor. Endigina tili chiqqan, juda biyron, sho*n. Buning ustiga ota-onasi uning ko*ngliga qarab juda erka qilib qo*yishgan. Uyga kelgan menmonlarning nammasiga: bizning o*g*il so*kishni juda boplaydi-da. Qani, o*g*lim bir so*kib bergin, - deydi. Tanti o*g*il esa «fanr» bilan burab so*kadi. Yigit nursand. CHunki o*g*illi bo*lgan, sho*n go*yoki uning o*g*ligina so*kishni boplaydi. YOsh otaning ma*naviy bilimi, nayot tajribasi yo*qki, bu kelgan menmonlarning izzat-nafsiga tegishini bilsa. Buni natto o*ylab

nam ko*rmaydi. Uning nazarida boshqalarning bunday pshrin, aqlli o*g*li yo*q.

Mana shunday ota-onalarga «Kalila va Dimna» asaridagi ushbu nikoyatni eslab o*tish joizdir.

Bir kuni nayvonlar shoni sher olamdan o*tib qolibdi. Nammalarini boshqarib, ko*z-quloq bo*lib turguvchi boshliqlari bo*lmaganidan nayvonlar orasida tartib buzilibdi, ular orasidagi birlik, anillik yo*qolibdi. Bu nolatni sezgan keksa nayvonlar shon tayinlanmasa narob bo*lamiz, bundan battar bo*lmaslik uchun bu ishni tezlashtirish kerak, - deyishibdi. Natijada kimni shon etib tayinlash kerak degan masala qo*yilibdi. SHunday qarorga kelishibdi. SHon tanlash vazifasini kirpi bilan qora qo*ng*izga bersak. Ular o*rmon o*rtasidagi maydonning chekkasidagi o*t-o*lanlar orasiga kirib olib, namma nayvonlar bolalarini o*ynayotganida kuzatsin - qaysi nayvonning bolasi ularga ma*qul bo*lsa, biz o*sha nayvon bolasini shon etib tayinlaymiz, deb kirpining tikonlariga olma qadab, ma*qul ko*ringan nayvonning bolasiga berishni tayinlashibdi. O*sha nayvonning bolasi shu daqiqadan boshlab bizga shon etib tayinlanadi, deyishibdi. Ularni yo*lga kuzatishibdi va bu masalani nal qilish uchun ularga uch kun munlat berishibdi. Oradan uch kun nam o*tibdi. YAna bir-ikki kun poylashibdi. Lekin kirpi bilan qo*ngizdan darak yo*q emish. Navotirlana boshlashibdi. Qaerda qolib ketishdi ekan, yana biror kattaroq nayvonlar ko*rmay yanchib ketishmadimikin, - deb o*tirishganida eshikdan kirpi bilan qo*ng*iz ko*rinishibdi. Kirpining tikonlarida olma nali sanchilib turganmish. Ular nayron bo*lib turishgan ekan kirpi bilan qo*ng*iz birin-ketin gapga tushib ketishibdi:

Kirpi: Men ayiqpolvonning bolasini kuzatdim. U shunday qo*polki, nar gal ag*darilganda boshqa nayvon bolalarining oyog*i yoki qo*lini bosib olayapti.

Qo*ng*iz: Men tulki bolasini kuzatdim. U shunday ayyorki, boshqa nayvon bolalarini aldab-aldab ketayapti.

Kirpi: Men ilonning bolasini nam kuzatdim. U boshqa nayvon bolalari bilan o*ynayotganida ularni chaqib olay, chaqib olay deb narakat qildi. Menga uning narakatlari yoqmadi.

Qo*ng*iz: ...

Kirpi: ...

Kirpi va qo*ng*izning namma javoblarini tinglagan keksa nayvonlar: Endi nima maslanat berasizlar, - deb so*rashibdi.

Kirpi: Mening bolam biram incham, biram aqlli, biram yumshoqki, nayvonlar shoni bo*lsa arziydi, - debdi.

Qora qo*ng*iz: Inchamlikda mening bolamga teng keladigani yo*q. Navf-natar yaqinlashadigan bo*lsa, u erni teshib, yashirinib olishi mumkin. Aqlli, chiroyli, oppoq, - debdi va kirpining tikonlaridagi olmaga yopishibdi. Kirpi esa olmani bergisi kelmabdi. Natijada olma majaqlanib, mayda-mayda bo*lib ketibdi.

Keksa nayvonlar nayron bo*lib: YO tavba, kirpi bolasini yumshog*im, qora qo*ng*iz oppog*im deydi-ya, - deyishibdi. SHuning uchun halqimizda «Nar kimniki o*ziga, oy ko*rinar ko*ziga», «Qora qo*ng*iz bolasini oppog*im, kirpi yumshog*im, degan ekan» kabi maqollar tez-tez tilga olinib turadi.

Biz nizmat taqozasi bilan ayollarning hayoti bilan yaqindan tanishish maqsadida Qashqadaryo viloyatida bo*ldik. Ko*pdan-ko*p ayollar, oilalar bilan sunbatlashdik, ularning muammolari, turmush tarzi, huquqiy, tarbiya masalalari bilan qiziqdik.

SHunday oilalarning birida ularning taklifiga binoan bo*lishga to*g*ri keldi. Bu nonadon o*ziga anchagina to*q bo*lib, oilada 3-4 yoshlar chamasidagi shiringina bir qiz farzand bor ekan. U salom berib, nonaga kirib keldi. Nammamiz alik olib, unga yuzlandik. Qizaloq oyisidan nonga sariyog* surib berishni so*radi. Oyisi bir burda non olib, unga sariyog* surib, qiziga uzatdi. U nariroq borib, nonning yog*ini yalab, yana yog* surib berishini iltimos qiddi. Onasi nonga yana yog* surib berdi. Uchinchi bor kelganida nonadon sonibasi qiziga yog* surib berdi-da, uning qo*lidan ushlaganicha siltab nonadan chiqarib yubordi. Bundan achchig*i chiqqan qizcha nonni biz o*tirgan nonaga qarab uloqtirdi. Non gilamning ustiga kelib tushdi. Biz bilan gaplashib o*tirgan qizchaning onasi o*rnidan turib, shandam qadamlar bilan borib qizining yuziga bir shapaloq urdi.

Qizcha yig*lab qoldi. Naligi ayol suv, sochiq olib kelib, gilamning non tushgan joyini arta boshladi. Biz qizaloqning yig*isidan anchagacha dilimiz nufton bo*lib o*tirdik. Gilamni yuvib-artib bo*lgan ayol yonimizga kelib, choy quyib berayotib: Endi bu yog* tekkan joy dog* bo*lib qoladigan bo*ldi. Gilamni nimchistkaga bersam ketarmikan. Essiz, agar yog* ketmasa, gilam norijniki edi, - dedi. Nammamiz lol qoldik. Biz bu ayolning: «Sen namma narsadan aziz nonni erga otadigan bo*ldingmi», - deb qiziga dakki berdi-da, bu oilada tarbiya yanshi yo*lga qo*yilayotgan ekan, degan nayollar bilan o*tirgan edik. Biz kechagina shu ayol ishtirokida o*tkazgan sunbatlarimiz, ma*ruzalarimizning oiladagi tarbiya boshi bo*lmish bu ayolimizga ozgina bo*lsa nam nafi tegmaganligidan nafa bo*ldik. SHuncha say-narakat, vaqt, asabning bu ayol uchun danlsiz qolganligidan achindik.

Nima uchun bunday? Nima uchun tarbiya, ma*naviyat borasida nar qadamda olib borilayotgan zanmatli mennat ba*zi toifa yoshlarimiz, oilalarimiz uchun besamar ketadi? Endi o*sib kelayotgan, mustaqil nayotlarini boshlayotgan boshqa zamondoshlarimiz uchun esa tarbiya borasida berilayotgan bunday bilimlar ularning ongiga suv va navodek singib ketadi, ma*naviyatining yanada yuksalishiga olib keladi.

Namma gap nar bir farzandga oila deb atalmish muqaddas uyada berilayotgan tarbiyada, unga bo*lgan e*tiborda. Oilani kichkina bir ijtimoiy, ma*naviy me*morchilik maskaniga qiyos qilish mumkin. Bu maskanda uning nizmatchilari bo*lmish ota va ona tomonidan nammaning diqqat e*tiborini tortadigan, nammani zavqlantiradigan, namma navas qiladigan zamonga namnafas nolda tobora chiroy ochib boradigan ma*naviy inshoot yaratib borilishi mumkin va, aksincha, o*z noliga tashlab qo*yilgan, zamonning ko*rkini buzadigan, unga ijtimoiy dard keltiradigan ma*naviy naroba nam «nadya» qilishi mumkin.

SHu o*rinda quyidagi qiyoslamani keltirish maqsadga muvofiqdir. Bolari va qovoqari bir nil ozuqa - shakardan biri bol, biri zanar yaratganidak, ota-onam bir nil biologik zot - odamdan jamiyatga naf beradigan inson nam, jamiyat

uchun g*am-tashvish keltiradigan inson nam o*stirishi mumkin. Lekin farzandning o*zi zennli, aql-farosatli, bilimga chanqoq bo*lib, ma*naviy barkamolligi uchun qayg*uradigan bo*lsa, u birovning masalanatini, pand-nasinatini quloqqa oladi, nar bir yanshi narsadan o*ziga ijobiy fikr oladi, o*zidagi ba*zi bir kamchiliklarni yo*qotishga narakat qiladi. Bunday insonlar o*z bantlarini o*zlari yaratadilar. Ammo o*zida nech narsa bo*lmagan, ota-onasidan biron-bir ma*naviy namirturush olmagan farzand uchun nar qanday ma*naviy o*git, tanben ortiqcha, besamardir. Biz yuqorida tilga olgan ayolni nam shunday insonlar toifasiga kiritish mumkin. Bunday insonlarni faqat nayot tarbiyalashi mumkin, nolos.

YOsh ota-onalar zimmasiga farzand tarbiyasi kabi o*ta yuksak vazifa yuklanar ekan, eng avvalo ularning o*zlari anloqan pok, keng dunyoqarashli, ma*naviy boy, tarbiya bobida tinmay izlanuvchan va narakatda bo*lishlari, bu masalaga o*ta jidiylik bilan qarashlari, sinchkov va z*tiborli bo*lishlari lozim. Umumiy, siyosiy, huquqiy, kasbiy bilimlarni egallab borishlari bilan birga pedagogika, psinologiya, biologiya fanlari bo*yicha nam o*z bilimlarini oshirib borishlari va olingan bilimlarni amalda qo*llab borishlari kerak bo*ladi.

2.16. Er-hotinning oiladagi bir-biriga munosabati, yurish-turishlari komil farzand tarbiyalashning amaliyotidir

Oilada farzandlarimiz ota-onalarining bir-birlariga bo*lgan munosabatlariga qarab imzzat-nurmatni, muomalani o*rganib boradi. Ota-onalarimiz bir-birlariga menrli bo*lsalar, shirin muomala qilsalar bolalar nam shunga ko*nikma nosil qilib, shunday muomalaga o*rganadilar. Agar turmush o*rtog*imizni ishga kuzatayotganda «YAnshi borib keling, adasi» yoki ishdan qaytganlarida «ishga yanshi borib keldingizmi, adasi» deb tabassum bilan kuzatib qo*ysak va kutib olsak, oiladagi o*g*il-qiz farzandlarimiz nam onaning bu narakatini ko*rib, otasiga nurmati oshadi. Ota-onani nurmat qilish kerakligini tushunib boradi.

Afsuski, namma oilalarda nam shunday o*zaro nurmat va menr-oqibat mavjud emas. Ba*zi oilalarda erni nurmat qilish o*rniga ularga nukmron bo*lish, ularni «o*z izmiga solish»ga bo*lgan intilish nolatlari nam uchraydi. Natto «bo*ysinmaydigan» erlarini o*z ayollik mavqeyidan «foydalanib» o*n besh sutkaga qamatgan «onalar»ni nam uchratamiz. Bu bilan «topqir» ayollarimiz go*yoki o*z erlarining ta*zirini berib qo*ymoqchi bo*ladilar. Bunday oilada erning hotinga bo*lgan nurmati, menri susayib boradi, natto bora-bora esa yo*qoladi. Endi er o*z hotinidan topmagan nurmatni, menrni boshqalardan qidira boshlaydi va natijada oila mustankamligiga putur etadi. Agar er surunkasiga ichib, nar kuni oilaning tinchligini buzadigan bo*lsa, buni ma*lum darajada tushunish mumkin. Lekin bu nolda nam boshqa yo*l topish mumkin. Anyon-anyonda ichib keladigan bo*lsa, erning o*sha kungi kayfiyatini buzmasdan, shirin muomala qilib ko*nqliga qarash lozim. Bolalar oldida turli ortiqcha gaplar bilan eringizning obro*sini to*kmang. Ertasiga o*ziga kelganida yotig*i bilan, baqirmay-chaqirmay bafurja gaplashish mumkin. Masalan, «Kechagi nolatingizdan bolalar oldida juda uyaldim. Sizga bunday nolatda yurish yarashmas ekan. Anir bolalar bizga qarab nayotni o*rganishadi, nayotda o*zlariga yo*l tanlaydilar. Biz ularga o*rnak bo*lishimiz kerak. Bolalar katta bo*lishayapti» deyish mumkin. Bunda agar fanm-farosati bo*lsa, eringiz anvolni tuzatish kerak ekanligini tushunadi.

Ba*zi bir ayollarimiz borki, ular erlaridan ozgina ko*proq topganlarini minnat qiladilar. «Endi kosang oqarib qoldimi, cho*ntagingga pul tushib, semirib qoldingmi, pulli boyvachcha bo*lib, ichadigan bo*lib qoldingmi?» kabi so*zlar bilan bolalari oldida erini naqorat qiladi, uning obro*sini to*kadi. Natijada bolalar otani nurmat qilmaydigan, aytganini qilmaydigan, gapini ikki qiladigan bo*lib qoladilar. Onalari otasini yomonlayverishi evaziga bolalarda otaga nisbatan nafrat paydo bo*ladi. Endi anyon-anyonda, to*y-tomosha yoki biron-bir uzrli sabab bilan ichadigan er alamidani nar kuni ichadigan bo*ladi va kelib hotinini uradigan, so*kadigan, naqorat qiladigan odat chiqaradi.

Faraz qilaylik, er do*stlarini uyga taklif qildi. Ammo bu tasodifiy taklif

ayolga yoqmaydi. CHunki bir qancha ishlarni mo*ljallab qo*ygan yoki menmonlarni kutib olish uchun imkoniyat yo*q. Natijada menmonlar nursandlik bilan kutib olinmaydi. Bu noldan erning asabi qo*zg*aydi. Menmonlar kuzatilgandan keyin esa hotinining «ta*zirini» beradi.

Bu nol boshqacha, yanshi natija bilan tugatish nam mumkin edi. Fanm-farosatli ayol bunday nollarda oilaning borini oshirib, yo*g*ini yashirib, menmonlarni ochiq chenra bilan, erining nurmatini joyiga qo*yib kutib oladi va kuzatadi. Menmonlar ketgandan keyin, vaziyatga qarab, er-hotin birlariga quloq solgan nolda, qanday ish tutish kerakligi haqida kelishib olishlari mumkin.

Masalan, uy bekasi bunday deyishi mumkin: «Adasi, menmonlarni olib kelishdan oldin uyda u-bu narsa bormidi, deb o*ylab ko*rsangiz yanshi bo*larmidi? Uyda menmon kutishga oziq-ovqat etarli emas ekan, qo*shnidan olib chiqishga majbur bo*ldim. Bundan buyon do*stlaringizni uyga taklif qiladigan bo*lsangiz, ogonlantirsangiz. Ikkovlashib menmonni yanshi kutib olish choralarini ko*ramiz. Bo*lmasam uyalib qolamiz». Bunday sunbatdan keyin er hotinning naq ekanligini tushunadi va bundan buyon hotini bilan bamaslanat ish tutishga narakat qiladi. Do*stlari bilan sunbatda ularning: hotining juda ajoyib ayolda, uyingga qay manal borsak nam ochiq chenra bilan kutib oladi. Tasodifan borib qolsak nam hotiningga nech malol kelmaganmiz», - degan gaplarini eshitib, hotiniga bo*lgan menri yanada ortadi, uni yana nam nurmat qiladigan bo*ladi. Oradagi sevgi-munabbat, oila rishtalari mustankamlanadi.

Nayotda uchraydigan yana bir nolatni olaylik. Aytaylik, turmush o*rtog*ingiz oyog*i og*rib, issig*i chiqib, ishdan vaqtli qaytdi. «Buni qarang, Nilolanon», - deb oyog*iga chiqqan yarani sizga ko*rsatdi. Siz yarani ko*rib, ijirg*andingiz: «Voy-bo*y, shu arzimagan yarani menga nega ko*rsatasiz? Do*ntirga borsangiz bo*lmaydi-mi?», Sizning bunday munosabatingiz, gaplaringiz turmush o*rtog*ingizning qalbini shunday yaraladiki, lol bo*lganidan sizga so*zsiz boqib qoldi. Nanotki jufti nalolim deb bir yostiqqa bosh qo*ygan hotinim mendan shunchalik jirkansa. Og*irroq kasal bo*lib qolsam-chi, unda

nima bo*ladi», - deb sizdan menri soviy boshlaydi. Keyinchalik siz o*ylamay aytilgan bir og*iz so*z bilan paydo qilgan qalb yarasini davolash uchun butun umringizni sarf qilishga to*g*ri kelishi mumkin. SHunda nam agar bu ijobiy natija bersa.

Aksincha, mana bunday nolatni tasavvur qilaylik.

Voy, Anvar aka! Issig*ingiz chiqib shuncha qiynalsangiz nam yuraverdingizmi? Qani keling-chi, - deb menribonlik bilan birinchi yordam ko*rsatsangiz va do*ntirga albatta chiqishlarini aytsangiz, bundan buyon bu masalaga nar kuni qiziqib borsangiz, olam guliston. Turmush o*rtog*ingiz endi nar kuni ishdan keyin uyga shoshiladigan, sizni qo*msab turadigan bo*ladi. Siz uchun esa bundan ortiq bant bo*lmasa kerak!

Oila qurgan nar bir yigit-qiz, er-hotin bir-birini «Menr» deb atalmish malnam bilan oziqlantirib tursa, unga suyansa, uni e*zoqlasa, ulardan bantli odamning o*zi bo*lmaydi.

Ra*nonon ismli kelinimiz yuqori narorat bilan yotib qoldi. Ishdan kelgan Anvarjonning oldiga zo*rg*a chiqib salom berdi. Alik olgan Anvarjon: «Ovqat bormi?», - deb so*radi. Ra*nonon tobi bo*lmagani, shuning uchun ovqat qilolmaganini tushuntirdi. Anvarjon: Mana yuribsiz-ku, ovqat qilib qo*ysangiz bo*lmaydimi, - deb janl aralash g*udrandi. O*zi oshnonaga kirib, ikkita tunumni qovurdi-da, o*tirib tamaddi qildi. Anvarjonning bundagi nar bir natti-narakati, gapida zarda, kinoya, viqor, mensimaslik alomatlari sezilib turar edi. Ovqatlanib bo*lgan Anvarjon Nilolaning oldiga kirib: Dasturnonni yig*ishtirib qo*yishga yararsiz?, - desa, bu Nilolaning qalbiga sanchilgan nanjar emasmi?

Buning o*rniga Anvarjon nar kuni nursand nolda tabassum bilan kutib oladigan turmush o*rtog*ining anvolini ko*rib; Ie, Nilola, nima bo*ldi? YOting, bezovta bo*lmang. Dori ichdingizmi? Ovqatlandingizmi?, -deb batafsil nol-anvol so*rab, sochlarini silab, erkalab qo*ysa, Nilola kasalini nam unutadi. Turmush o*rtog*ining kelishiga ovqat qilib qo*yolmaganidan nijolat bo*ladi. Bu bilan Anvarjon o*z turmush yo*ldoshini shirin so*z, qalb menri bilan

davoladi. Endi Nilola Anvarjonning kelishiga bir emas, ikki nil ovqat tayyorlaydi. Sizning bergan mana shu ma*naviy ozuqangiz tufayli u qanot chiqarib uchadi. Barcha ishlarni bitmas-tuganmas kuch-g*ayrat bilan qiladi. Naqiqiy menribon turmush o*rtog*i borligidan, toleidan nursand bo*ladi, nayotdan mamnun bo*lib yashaydi. Endi uning suyanadigan tog*i bor. Sunbatlashish uchun dilcash yori bor. Qiynalgan paytlarida elkadoshi bor. Dunyoda undan bantli ayol yo*q!

SHu o*rinda A. R. Beruniyning ayollar haqida bundan 11 asr ilgari aytgan quyidagi fikrlarini keltirshp maqsadga muvofiqdir: «Ayollar olmosga o*nshaydi. Olmos olmos bo*lguncha necha-necha charnlardan o*tadi, qanchadan-qancha mashaqqatlarga chidaydi. Natijada qirralari shunday ishlov topadiki, yaraqlaganida ko*zni oladi. Olmos shu tariqa qimmatli toshga aylanadi». Ayollar tortgan mashaqqatlari, sabr-qanoatlari evaziga shunday banoga sazovor bo*ladilar. Qizlarimiz nam borgan nonadonlarida aqllilik, zukkolik va kamtarlik bilan ish ko*rsalar, ulardan bantli ayol bo*lmaydi.

Beruniy o*zining «Nindiston» asarida «Nech bir halq oila-nikoh munosabatlaridan noli emas», - deydi. Oila qurishdan avval qiz va yigit bir-birlarini ko*rishlari, yoqtirishlari, bir-birlariga qalban menr qo*yib, so*ng oila qurishga rozilik bildirganlari ma*qul. CHunki, bu qalban yoqtirish, ya*ni, boshqacha aytganda, ikki yurakning bir-biriga nisbatan «jiz» etishi keyingi oilaviy tashvish va mojarolarning silliq o*tishiga yordam beradi, nayotda uchraydigan turli qiyinchilik va to*siqlarni engib o*tishda kuch-quvvat bag*ishlaydi.

Islomda bu masalada quyidagi g*oya bayon qilinadi. Nikohdan oldin kelinga manr berish shartligi, kuyov bo*lmishning ijtimoiy anvoli yanshi bo*lmasa, u nolda manrni qisman bo*lsa nam berish kerakligi nazarda tutilgan.

SHariatda manr bu nikoh oldidan ayolning ko*nglini olish, uning qalbida kuyovga nisbatan menr uyg*otish maqsadida, shahsan kelin bo*lmishning o*ziga berilishi lozim bo*lgan sovg*alardir. Ular shirinliklar,

taqinchoqlar, ro*mol yoki matolardan iborat bo*lishi mumkin. Ular orasida shirinlikning albatta bo*lishi kerakligi nazarda tutilgan.

Menr berish islomda sunnat nisoblanadi. Janobi Rasulullon salollonu vasallam qizlari Fotimani bo*lajak kuyovi Aliga berayotganlarida kuyovning manr bergan yoki bermaganligini so*rab bilganlar.

Beruniy yozadi: Ey, qizim. Sen o*rgangan uyingdan ketib, notanish nonadonga tushmoqdasan, sen bo*lajak kuyovingning namma nislatlarini bilmaysan. Sen er bo*1, u osmon bo*ladi. Demak, sen u bilan shunday yo*1 tut, uning oldida er kabi qamtar bo*lsang, u osmon kabi oliyjanob bo*ladi. Osmon shifoli yomg*iri bilan erni ko*kartirgani kabi, u nam o*z menru shafqati bilan seni nushnud etadi... Ering sendan faqat yumshoq va shirin so*zlar eshitsin, yaramaydigan yoki eski libosda, sochlaring tartibga solinmagan nolda uning oldida o*tirma... YAnshisi sen u bilan nushmuomalada, shirin so*zli bo*lgin... Bu ishing nar qanday senr-jodudan yanshidir. Suvdan tez-tez foydalangin. O*zingga nushbo*y narsalar bilan oro ber. Pokizalik namisha yo*ldoshing bo*lsin...

Beruniyning bu pandu nasinatlari o*ninchi asrga tegishli bo*lishiga qaramay, ular nozirgi kunda nam oila qurish oldida turgan nar bir qiz uchun bantli turmush qurish kaliti bo*lib nizmat qilishi shubnasizdir.

2.17. Oila-yoshlarda insoniy fazilatlarni tarbiyalashning muhim omili

Odobning elementar ko*rsatkichlari oilada shakllana boradi. O*zingdan kattalarga salom ber, ovqatdan oldin qo*lingni tozalab yuv, ovqatning oldini katgalar boshlab beradi, kattalar turganda kichiklar yuqoriga chiqib o*tirmaydi... Nuddi shuningdek, uyga kelgan menmonga qilgan muomalangiz, menmonlar ketgandan keyin u naqda bildirgan fikrlaringiz namma-nammasi bola uchun andaza. Ota-nalarning o*zlari bir-biriga gap qaytarsa, betga chopar bo*lsalar, bolalar nam bunday muomalani tabiiy deb qaraydilar. Oilada tarbiyaviy munit

sog*lom bo*lsa, ota-ona, aka-uka opa-singil bir-birini nurmat qilsa menribon bo*lishsa, biri ikkinchisiga yordam bersa, bu odatlar asta-sekin ko*nikmaga aylanadi va avlodlarga nam uzatiladi. Agar ota-onaning o*zi gapini o*ylab gapirmaydigan, befarosat bo*lsa tutimi ozoda bo*lmasa, bu oilada tarbiyalangan qiz nam, o*g*il nam befarosat, uy tutimiga befarq bo*lib tarbiyalanadi. Halqimizda «Onasini ko*r-u, qizini ol, molini ko*r-u bo*zini ol» degan maqol bejiz aytilmagan.

Talabalar bilan amaliyot davrida bir ochiq sudda o*tiribmiz. Ikki yosh turmush qurishganiga bir yil-u ikki oy bo*lgan. Yigit 21 yosh, qiz 19 yosh. Sudda bu ikkala yoshning qonuniy nikohlarini bekor qilish masalasi ko*rilmoqda. Ularga savollar berila boshlandi.

- Siz turmush o*rtog*ingizni ko*rib, yoqtirib turmush qurganmisiz?

- Na.

- Siz-chi?, - deb yigitdan so*rashdi.

- Na, - dedi yigit. -Lekin nozir nafratlanaman. Hotinsiz o*tsam o*taman, ammo bu bilan yarashmayman. Nalitdan shunday qabinlik qilsa, oqibati nima bo*ladi?

Insoniyat o*z tarinida qancha urush ko*rgan, qancha qurbon bergan bo*lsa, bular-yovuz g*oyalarning paydo bo*lishi, targ*ib qilinishi, millionlab kishilarni shu g*oyalar bilan avval nulq-atvor motivlarining shakllanganligi natijasida qo*llariga qurol berilganidan boshlangan. Buzg*unchi g*oyalar targ*iboti odamlar, millatlarning tinchligini buzgan.

O*tmishdan Islom dini niqobi ostida o*z manfaatlari sari kurash olib borgan, turli nunrezliklar va buzg*unchiliklarga sabab bo*lgan voqealar ko*plab uchraydi. Jumladan, Abu Ali ibn Ali Tusiy-Nizomulmulk o*zining «Siyosatnoma» («Siyar ul-mulk») asarida bu fikrimizni isbotlovchi ayrim voqeliklar haqida nabar beradi. Nalbuki, uzoq yillar soljuqiylar saroyida vazirlik lavozimida ishlab kelgan va «Nizomulmulk» nomi bilan mashhur bo*lgan bu davlat arbobining o*zi ham islomda yot bo*lgan fisqu fasod qurboni bo*ldi. U yollanma qotil Abu Tokur tig*idan o*lim topgan.

«Qadim zamonlarda norijiyalar (dindan qaytganlar) bo*lgan va ular davlatga yashirincha yomonlik qilib, har bir ovozaga quloq solib, mayda ishlarga ham aralashib yurardilar. Nudo o*zi saqlasinu, moboda davlatga biror zarar tegib qolsa, bu itlar yashiringan joylardan chiqib, davlatga qarshi yurish qilib qo*llaridan kelgan yomonlik va bo*nton ishlarni qiladilar. Ular garchi so*zlarida musulmonlikka da*vogar, haqiqatda esa kofirlar fe*li va ishlarini qiladilar.

Ularning botinlari zohirlariga qarshi, so*zlari amallariga ziddir. Muhammad alayhissalom dinda bulardan yomonroq dushman yo*q» - deb yozadi Nizomulmulk.

Demak, bundan deyarli 10 asr ilgari, undan oldin, keyin ham halq manfaatlaridan «haqiqiy musulmon» niqobi orqasida yashiringan bunday kishilar o*z shahsiy manfaatlarini ustivor qo*ygan. Payt poylab turib hujumga o*tgan.

Bunyodkor g*oyalar targ*iboti esa, shahshi yuksaltirgan, yanshilik g*alabasini ta*minlagan. Biroq, bu g*alabalar taraqqiyot, millatlar uchun qimmatga tushgan. Tarin aqidaparastlik, diniy fanatizm, terrorizm, bosqinchilik, fashizm, shovinizm, jaholatparastlik, bolshevizm va boshqa buzg*unchi g*oyalarni ko*rdi, bildi. Ayniqsa, 90-yillarning boshiga kelib «vahobiylik», «hizbut-tahrir», «akromiylik», «tavba» kabi turli zararli g*oyalarga asoslangan kuchlar va harakatlar avj ola boshladi.

Masalan, vahhobiylik islom g*oyalariga siyosiy tus berib, din nomidan ish yuritib, go*yoki islomni Payg*ambar davridagi «asl holatiga qaytarish», ya*ni uni tozalash, barcha musulmonlarni islomning yashil bayrog*i ostida birlashtirish kabi g*oyalarni ilgari surdi.

Vahhobiylik mustaqillik arafalarida ilk yillaridagi oilalardagi g*oyaviy bo*shliqdan ustalik bilan foydalanishga intildi. Dastlab joylardagi masjidning imom-natibligi, keyinroq esa mamlakat diniy idorasining nufuzli lavozimlari uchun kurash boshlanib, O*zbekistonni islom respublikasi deb e*lon qilish, mintaqamizda nalifalikni tiklash rejasini amalga oshirmoqchi bo*ldi.

Buzg*unchi g*oyalardan yana biri–fashizm edi. Bu g*oyaning manbai-gitlarning «Mening kurashim» deb nomlangan kitobi hisoblanadi. Nauqizmning «ommaviy psinologik qirg*in quroli» yaratildi. Uning amaliyoti nazariyasidan oldin paydo bo*ldi. YA*ni «Halq ta*limi vazirligi», «Halq ta*limi va targ*iboti vazirligi»ga aylantirildi. Vazirlik gitlerchilar Germaniyasi mafkuraviy hayotining barcha sohalarini total qamrab oldi. SHior «YAgona imperiya, yagona halq, yagona Fyurer» bo*lishi kerak edi. Fashizm o*z pedagogikasini yaratdi. Gitler yoshlarga yovuz, zolim va talabchan bo*lish kerakligi nususida tarbiyani singdirdi.

Nemis askarlariga «qo*l uzatsa etadigan» darajada (targ*ibot orqali) bantli istiqbol ko*rsatildi. Nullas, fashizm-yuzlab millatlarga mansub millionlab insonlarning yostig*ini quritgan, hali ham tortayotgan yovuz g*oya ana shunday yovuz ijtimoiy-pedagogik menanizm targ*ibotga qurildi. Toki buzg*unchi g*oyalar hozir, O*zbekiston Respublikasi atrofida tahdid solib turgan ekan, ayrim yoshlarni ularning targ*ibot-tashviqot girdobiga tortib ketgan ekan, ularga qarshi qulay pedagogik tizim asosida birgalashib kurashish bugungi kunning eng dolzarb masalalardan biri bo*lib qolmoqda.

Mafkuraviy kurashlar yurtimizda kuchaygan 1999-2001 yillarda odamlar orasida «da*vat», «da*vatchilar» degan ibora ko*p ishlatiladigan bo*lib qoldi. «Da*vat» so*zi o*z ma*nosiga zid tarzda ishlatila boshlandi. Oilalarda, marosim, to*y, hashamlardan tortib, azagacha, hatto ayollarga tegishli ayrim mavliyatlariga ham «da*vatchi» taklif qilinadigan bo*ldi. Kim tomonidan, qaerda yozilgan noma*lum «da*vat» magnit yozuvlaridagi ayrim irodasi, bilimi bo*sh hamyurtlarimiz «da*vat»ning mag*zini chaqib-chaqmay, halqimizning orasida turli mish-mishlar tarqatib, tashviqot qildilar.

Aslida Islomda da*vatni Olloh taboraka bayon qilib qo*ygan: “Oralaringizda yanshilikka (islomga) da*vat qiladigan, ibodatga buyuradigan va isyon-gunohdan qaytaradigan bir jamoat bo*lsin. Ana o*shalar najot topguvchilardir» - ya*ni da*vatda biror insoniyatni yanshilikka chaqiradigan, nayrli ishlarga buyuradigan, nopok yo*llardan qaytaradigan, ijobiy, ijtimoiy pedagogik vazifani bajaruvchi kishilar da*vatchi deb ataladi.

Diniy aqidaparastlik targ*iboti pedagogikasida “jihod” tushunchasi ham faol qo*llaniladi. Jihod (arab-lug*aviy: g*ayrat qilish) ilk Islom davridan buyon reaksiya ahamiyat kasb etib, talonchilik va bosqinchilikni diniy oqlash niqobi bo*lib kelgan. Islomning hozirgi zamon nazariyotchilari «jihod bosqinchilik urush emas, balki mudofaa urushidir. Dinni tinch yo*l bilan targ*ib qilish usulidir», deb uni oqlashga urinmoqdalar, ba*zi musulmon mamlakatlarida halq ommasining mustamlakachilarga qarshi kurashlari ham ayni hollarda jihod nomi bilan atalmoqda. “SHahid»larni ana shu g*oyalar asosida ishontirilib qurol o*rnida

ishlatilmoqda. Vahobiylar esa «jihod» shioridan mavjud demokratik tuzumga qarshi Islom davlatini tuzish uchun foydalanmoqdalar.

Ularning pedagogik maqsad va vazifalarida buzg*unchi tarbiyaning:

- boshlang*ich: umumiy ma*rifiy va nayriya faoliyati, ya*ni ommaga islom g*oyasini singdirish;
- tashkiliy: guruhlariga jalb qilingan a*zolarni jangovar kurash usullariga o*rgatish, mujohitlar tayyorlash kabi usullari uchraydi.

O*zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida diniy qarashlarni majburan singdirishga yo*l qo*yilmasligi qat*iy belgilab qo*yilgan. Biroq hanuzgacha buni buzishga intilayotgan «hizbut-tahrir» va boshqa buzg*unchi, harakatlar o*z g*ayriqonuniy targ*iboti bilan mashg*ul bo*lib, o*zlarining qonunga nilof natti-harakatlari bilan jamiyatdagi barqarorlikni buzishga intilmoqdalar. Ularda yoshlarni diniy fanatizm va ekstremizm ruhida tarbiyalashning ko*p usullari mavjud. Bular-da*vat, ishontirish, varaqa va mish-mish tarqatish usullaridir. Ular fuqarolar o*rtasida, da*vat etish va shahs munosabatlarini keskinlashtirishga qaratilgan natti-harakatlarini keng miqyosda amalga oshirimoqdalar. O*z g*arazli maqsadlarini ko*zlab, hokimiyatning qonuniy faoliyat ko*rsatayotgan organlari va mansabdor shahslarga halq o*zi aziz bilib, tanlab, saylab olgan rahbariga va ular olib borayotgan oqilona siyosatga qarshi ig*vo, fitna va bo*hton tarqatishga zo*r berib harakat qilmoqdalar.

Fundamentalizm, ekstremizm, terrorizm jamiyatda qabul qilingan hech bir mutaraqqiy qonun-qoidalariga to*g*ri kelmaydigan harakatlarni ifodalaydi. Terrorizm esa hokimiyatni yoki biror bir g*arazli maqsadlar uchun kurashning qo*rqitib kurashish usulidir. U ham o*zining mafkurasiga ega.

Terrorizm mafkurasi umuminsoniy manfaatlarga zid. U eski tarin sahifalarida qolib ketgan nalifachilikni tiklash g*oyasiga zo*r berib, turli millat va elat vakillari yashayotgan mamlakatimiz ijtimoiy sohasining turli jabhalarida milliy istiqlol mafkurasi ruhiyati bilan yashayotgan va mehnat qilayotgan halqimizning qalbiga va ongiga buzg*unchi g*oyalarni singdirishga harakat qilmoqda.

Terrorizm – bu zo*ravonlikning turli ko*rinishlari (qotillik, hujum, bosib

olish, qoʻrqitish, irodasini susaytirish)ni oʻzida namoyon etadi. SHu jumladan U.Ubaydullaev ham terrorizmning quyidagi umumlashgan taʼrifini berib: “Terrorizm bu—maʼlum siyosiy maqsadlarga erishishga yoʻnaltirilgan, tinchlikka, fuqarolar nafvsizligiga va hayotiga zoʻravonlik ishlatish yoki qoʻllash navf-natarini tugʻdirishdir» - degan edi.

SHuni eʼtirof etish kerakki, bugungi kunda terrorizm va diniy aqidaparastlik razil va qabih amallarini taraqqiyotimizning hamma sohalarida keng qoʻllanilayotgan kompyuter tarmoqlariga ham kiritmoqda. Yigirmanchi asrning soʻnggi oʻn yilligida halqaro kompyuterining kurrai zamin boʻylab keng yoyilishida ulkan siljishlar kuzatildi. AQSH mudofaa mahkamasining oddiy bir loyihasidan boshlangan bu tizim bugungi kunda butun dunyoni bir-biriga chambarchas bogʻlab turibdi.

Oʻzbek oilalarida internetga ulangan kompyuter soni tobora orta bormoqda. Internet insoniyat uchun cheksiz imkoniyat va qulayliklar yaratdi. U nususan anborot va kommunikatsiya jarayonlarini misli koʻrilmagan darajada tezlashtirdi. Behisob fazilatlar bilan bir vaqtda bu moʻʼjiza ayrim jiddiy muammolarni ham keltirib chiqardi. Dunyo mamlakatlari navfsizligi jiddiy tahdid sifatida qaralayotgan ana shunday muammolardan biri sayberterrorizm sanaladi. Sayberterrorizm (bu atama kiberterrorizm deb ham qoʻllaniladi) internet tarmogʻi orqali amalga oshiriladigan elektron qoʻporuvchilikdir.

Oʻz-oʻzidan tushunarliki, sayberterrorizm internet olamidagi yangi hodisa. Sayberterrorizm bu-terrorchilikning bir turi boʻlib kompyuterlar tizimiga hujumlar uyushtirish, internet orqali muayyan hukumat yoki mamlakatga qarshi qoʻporuvchilik ruhida anborotlarni tarqatish, shuningdek, diniy, irqiy, ruhiy yoki shu kabi omillar ashosida birikkan turli kuchlar tomonidan muayyan mamlakat yoki mintaqada ijtimoiy hotinchlik keltirib chiqarish kabi qator faoliyatlarni qamrab oladi.

hozir deyarli hamma terrorchi guruhlar internetda oʻz saytlariga ega va ular ayni vositadan oʻz gʻoyalarini yoyish, oʻzaro anborot almashish va boshqa maqsadlarda keng foydalanmoqda. Bunday guruhlarining internet orqali

qo*poruvchiligi ham nuddi odatdagi terrorchilik harakatlari kabi yo siyosiy-ijtimoiy, yo diniy-etnik yoki boshqa da*volar ostida amalga oshiriladi. Masalan, Kaliforniyadagi terrorizm va noan*anaviy urush amallarini tadqiq etish markazi mutahassislari internetdagi terrorchi guruhlarini quyidagi turlarga ajratadi: diniy, etnomillatchi ayirmachilar, inqilobchilar, ekstremist kuchlar.

Islomni asli holida saqlab qolishga qaratilgan harakat Evropada fundamentalistlar, Markaziy Osiyoda aqidaparastlar yoki ekstremistlar, deb ataladi.

Fundamentalizm so*zi asli lotinchadan kelib chiqqan bo*lib, asos yoki poydevor ma*nosini bersa-da, aqidaparastlik tushunchasi unga mos keladi. Biror narsaning asosi jumladan, dinning asosi yoki poydevori. Ular milliy ong sohasida islomni millatchilikka qarshi qo*yadilar, ya*ni musulmonlar qaysi millatdan bo*lishiga qaramay, jamiyatda islom aqidalariga so*zsiz amal qilishi kerak, ijtimoiy ong sohasida esa musulmonlar jamoasi a*zolari, ummatlar teng huquqli, ularni bir-biridan ajratish mumkin emas, degan konceptiyani ilgari suradilar.

Diniy aqidaparastlik ko*r-ko*rona ishonish, e*tiqod asoslangan dalilsiz, isbotsiz qoida, ishonch bilan aytilgan fikr yoki qattiq ishonilgan mulohazaga asoslanadi. SHu sababli aqidaparast odamlar ko*r-ko*rona ishonuvchi, aqidalarga yopishib olgan, dogmatizm tarafdori sifatida qaraladi. CHunki dogma-bu tanqidiy tekshirmay, ko*r-ko*rona qabul qilingan qonun-qoida, fikr-mulohaza, aqidadir. SHuning uchun ham aqidaparast dogmalar, aqidalarga asoslangan tafakkur, eskirgan, qotib qolgan nazariy qonun-qoidalarga tanqidiy ko*z bilan qaramay, unga ko*r-ko*rona ishonadi va amal qiladi.

Demak, diniy aqidaparastlik aqidaning o*zgarmasligini himoya qiladigan, vahiy va mo**jizalarning muqaddas kitoblardagi bayonining harfiy talqini tarafdori, ularning har qanday majoziy talqiniga murosasiz, so*zma-so*z talqiniga asoslangan e*tiqodni aqlga tayangan mantiqiy dalillardan ustun qo*yadigan, muayyan diniy e*tiqod shakllanishining boshlang*ich davrida belgilangan barcha yo*1-yo*riqlarning qat*iy va og*ishmay bajarilishini talab qiladigan diniy oqimlarni ifodalashda qo*llaniladigan istilohdir.

Diniy ekstremizmning asli ma*nosi nima? Ekstremizm so*zi aslida

franzuzcha-lotinchadan kelib chiqqan bo*lib, o*ta keskin fikrlarning bildirilishi va qattiq tadbirlarning qo*llanilishi yoki keskin fikr va choralarni yoqlovchi, keskin choralarga tarafdorlik ma*nolarida qo*llaniladi.

Bunday keskin fikrlar sog*lom yoki nosog*lom bo*lishi mumkin. SHu sababli jamiyat uchun nosog*lom ma*nodagi keskin chora va fikrlarni yoqlovchilarni ekstremistlar yoki ba*zi ma*noda jaholatparastlar ham deb atashadi.

Diniy ekstremizm faqat Islom olamiga tegishli bo*lib qolmay, balki dunyodagi barcha dinlarga mansubdir. Ayniqsa, o*rta asrlarda nristian ruhoniylari «muqaddas kitoblarida belgilangan har qanday aqidalarga qarshi chiqish Nudoning irodasini buzish demakdir», deb uqtiriladi. har qanday norozilik «qo*rslik», «takabburlik ifodasi» deb hisoblanadi va bu eng mudhish gunohdir, deb e*lon qilingan edi. CHerkov kuchli bo*lishiga qaramay, shaharliklar va dehqonlar orasida cherkov ta*limotiga qarshi chiquvchilar ko*paya bordi.

YOshlarni o*z domiga tortayotgan har nil yot g*oyaga qarshi kurash bugungi kunda avj oldirilmoqda. Bu borada professor Tilab Mahmudov o*z fikrlarini bildirib: “Mustaqillik mafkurasiga zid bo*lgan diniy ekstremistik g*oyalar pirovardida jinoiy ishlarni sodir etishgacha olib keldi. Tarindan ma*lumki, avvalo to*plar otilib, so*ngra g*oyalar jangi bo*lmagan. Aksincha, avval miyalar qizigan, tafakkur etilgan, ma*lum dunyoqarash shakllanib, mafkuraviy kurash maydonga chiqqan. YAnshimi, yomonmi mafkuraviy bo*hton dastavval yoshlarni o*z domiga tortadi. YOshlarsiz har kanday mafkura, dunyoqarash, g*oyalar bir qadam siljimag qoladi. g*oyalarni kuchaytiruvchi, to*ldiruvchi va ularga qalb beruvchi yoshlardir. SHuning uchun barcha zamonlarda jamiyat va davlat, o*z oldiga ma*lum maqsad qo*ygan guruh, jamoa, oqim, mazhab va sektalar birinchi navbatda yoshlarning ongini egallashga harakat qiladi» - deydi.

YOshlarni har nil buzg*unchi g*oyadan himoya qilish uchun oila, ta*lim muassasasi, mahalla hamkorligida bugungi kunda mavjud buzg*unchi g*oya bilan sug*orilgan oqimlarning asl basharasi, ularning maqsadi, hamda bu

g*oyalarning yoshlarga jumladan jamiyatga keltiradigan zararini to*la tushuntirish, suhbat va boshqa metod, usullaridan foydalanib kurashish bu esa ilmiy-pedagogik asosga qurilgan bo*lishi kerak.

4. Ota – onalar va yosh oilalarga maslahat

Bitta edingiz, ikkita bo*lganingiz muborak.

Sizni ona bo*lishdek shunday ulug* bir sharafiga na o*lchab, na tasvirlab bo*lmas saodatga etkazgan, yangi mehmon poyiga poyondoz to*shash bantiga yaqinlashtirayotgan Tangriga beadam shukur!

Endi siz bo*lajak onasiz. Ona eng avvalo o*zi sog*-salomat bo*lishi kerak. Uning hatti-harakati, yurishi yoki ko*p uhlashi, jizzakiligi yoki og*ir bosiqliqi, hamma-hammasi homilaga ta*sir qiladi degan fikrlar bizga qadimdan ma*lum. hozirgi kunda yapon apparatlarida nomila nolatlari tadiq qilinyapti.

Laboratoriya tajribasida onani alohida nonaga joylashtirib, osoyishta sharoit yaratildi. Nonada «cho*li iroq» musiqasi yangradi. Nomila bu musiqadan orom olib tinch yotayotgani kuzatildi. Zamonaviy sho*n shovqinli musiqa yangradi. Nomila bu musiqadan bezovta bo*la boshladi. Musiqaning nomilaga ta*sirini UZD apparati orqali kompyuter ekranida ko*rib hayratga tushdik. Demak, onalarimiz bekorga farzandlariga alla aytishmas ekan.

Alla ohangi homilani ruhan osoyishta, og*ir-bosiq, ongli bo*lishiga yordam berar ekan. Momolarimiz bekorga homilador onaga barmog*ingni qirqib ber, desa qirqib berish kerak degan mubolag*a gaplar zamirida juda katta ma*no yotadi. Demak, homilador ayol ko*ngli nima tusasa, olma, anor, shirinlik, achchiq-sho*r kabi taomlarni albatta topib berish kerak degani.

Nomilador ayolning siqilishi, surinkasiga istirob chekish, asabiylashish homilaga ta*sir qilishi isbotlandi.

Natto onaga berilayotgan taomni halol-haromligiga ham katta e*tibor berish kerakligi haqida ma*naviy manbalarda yoritilgan.

Masalan, Amir Temur o*g*lini uylantirgandan keyin, qirq kun chilla saqlatib yoshlarning qo*shilishlariga runsat bermagan. qirq kun o*tgach o*g*liga

quyidagicha nasihat qiladi: O*g*lim, bizga kelinimizning ota-onalari uni halol yoki harom taom bilan boqganmi yo*qmi qorong*u. SHuning uchun uning tanasidan shu paytgacha iste*mol qilgan oziq-ovqatlarining barchasi qirq kun mobaynida yangisiga almashadi. SHundan so*ng sizlar qo*shilshingiz mumkin, deb qirq kundan so*ng, endi ruhsat beraman, deb ruhsat bergan va quyidagilarni nasihat qilgan:

Eng avvalo ozoda bo*l, yanshilab tahorat qil so*ng chillanonaga kirgach Allohdan niyatingni to*liq so*rab iltijo qilginki, Insho Alloh niyatlaring ijobat bo*lg*ay, deb, quyidagi fikrlarni bayon etadi: Albatta oila qurishdan maqsad avlodlarimiz davomiyligini ta*minlash. Oilamiz chirog*ini so*ndirmaslik. Ona yurt yangi himoyachisini dunyoga keltirish, yurt kamoliga – kamol qo*shuvchi shijoatli, jasur, aqlli merosimiz davomchisini dunyoga keltirishdir. O*g*lim. Sen bugun chillanonada Tangriga iltijo qilib niyatingni to*liq so*ra.

– Ey Tangrim. Menga shunday farzand berginki, uning umri chinor umridek uzun bo*lsin, deb so*ra.

- Ey Allohim, menga shunday farzand berginki, aqlli Muhammad Payg*ambarimizdek zukko bo*lsin, deb so*ra.

- Ey Allohim, menga beradigan farzandingning hushi malikai Nushioboddek go*zal qilib berginki do*st-dushman oldida yuzim yorug* bo*lsin, deb so*ra, degan o*gitlari bugungi kunda ham o*z qadrini yo*qotgan emas.

hozirgi tibbiyot nima uchun farzandlar orasidagi yosh uch yil bo*lishi kerakligini ilmiy o*rgandi.

Natija quyidagi nulosalarni berdi:

Birinchidan, ayollar 20-33 yoshda eng sog*lom, kuch-qudratga to*la, fiziologiyasi bimalol farzandga oziq-ovqatni kerakligicha etkazib beradigan mahsuldor payti bo*ladi. Farzand tug*ilgandan so*ng bu yoshdagi onalar yana o*zlarini tiklab oladilar.

Farzandlar orasi uch yil bo*lsa, birinchi farzand onadan etarli oziq-ovqatni oladi va sog*lom baquvvat bo*lib ulg*ayadi. Ammo shu uch yil orasida yana homila paydo bo*lsa, yangi bo*shangan ayol organizmi o*ziga ham, farzandiga

ham ozuqa etkazib berolmay o*zini tiklashga qiynalib qoladi. Natijada ona ham bola ham nimjon bo*lib, tez kasallikka chalinuvchan bo*lib qolishadi. SHuning uchun farzandlar orasidagi 2,5-3 yosh farqi onaning ham, farzandning ham salomatligi garovidir.

Erkaklar 18-45 yoshlarida, ayollarning 18-33 yoshlaridagi davri eng mahsuldor, kuch qudratga to*la hech qanday (ular ichmasa, chekmasa va boshqa spirtli narsalar surunkasiga iste*mol qilmasa) nuqsonsiz farzand ko*rishadi.

Ba*zi hollarda 35-40 yoshlarda farzand ko*rgan onalarimiz fiziologiyasi yanshi saqlangan bo*lsa, ya*ni ularning biologik quvvatlari baquvvat bo*lsa, erkakda ham huddi shu holat bo*lsa bola sog*lom, aqlli tug*ilishi mumkin. Ammo ayol ham erkak ham shu yoshda bo*lib, ularning fiziologiyasida qarish, stress kuchli kechgan holatlari bo*lsa, farzand, to*la qonli tug*ilmaydi.

Ayol organizmi bunday ozuqani homila uchun to*la-to*kis ta*minlab bera olmaydi. Natijada farzand biror nuqson bilan tug*ilishi mumkin.

YOshlarni oilaga tayyorlash

Eng avvalo yoshlarga oila muqaddas ekanligini ta*kidlaymiz. Oila qurishdan oldin men oilani boshqara olamanmi? Ota yoki onalik vazifasini bajarishga tayyormanmi? – degan savollarga javob berish kerak. SHu savollarga qoniqarli javob bera olsangiz keyin oila qurishingiz mumkin. Uylanish yoki turmushga chiqish bekinmachoq o*yini emas, bugun o*ynab ertaga tashlab ketadigan. Bir umr birga yashashni ko*z oldingizga keltirib, «Etti o*lchab bir kes» maqoliga amal qilib keyin bir qarorga kelishingiz talab qilinadi.

Halqimiz bekorga «Ko*z ochib ko*rganim ko*z qorachig*im, keyingi ko*rganim loyu-balchig*im», deb aytmagan. CHuqur mulohaza, surushtirish, uchrashishdan so*ng ma*qul ko*rib oila qurdingizmi endi bu oilani muqaddas biling. Iloji boricha uni asrab-avaylab, unga niyonat qilmaslikka, vafodor ayol yoki er bo*lishga intilish kerak.

YOshlarimiz bugungi kun statistik ma*lumotlariga qaraganda oz muddat

ichida oila qurishganlaridan keyin, narakterimiz bir-birimizga to*g*ri kelmyapti, bir-birimizni tushuna olmyapmiz, degan da*voni qilyaptilar.

Oila qurganlariga ikki-uch yil bo*lgan yosh oilalarni ikkiga ajratib statistik ma*lumotlar yig*ildi.

Birinchi tip oilalar o*zlari topishgan, sevib-sevilishgan, o*z nohishlari bilan oila qurgan yoshlar.

Ikkinchi tip oilalar kattalar, ota-ona, qon-qarindosh urug*lar orqali topilgan, bir-birini ilk bor ko*rib ma*qul topgan, o*z nohishlari bilan oila qurgan yoshlar.

Statistika shuni ko*rsatdiki, bu ikki tur oilaning birinchi turida ajralishlar ko*proq.

Olib borilgan mutahassis kuzatuvi psinologik analiz va sintez tadqiqot ishni quyidagicha yakunladi:

O*zi topgan, sevib-sevilgan yoshlar o*zlarining yanshi, go*zal faqat ijobiy tomonlarini bir-birlariga ko*rsatganlari tufayli, bu yoshlar shu yanshi fazilatlariga mehr qo*yib, bir-birlarining ijobiy tomonlariga ko*nikma hosil qilib o*rganan yoshlardir.

Ular oila qurganlaridan so*ng, bir-birlarining visoliga erishgach, endi salbiy qiliqlarini yashirib yurishga hojat yo*q deb yashiringan nuqsonli qiliqlari va fe*llarini yuzaga chiqaradi. Bu qo*shilmagan fe*llarga o*rganmagan, kutmagan yoshlar orasida ajrashishlar ko*proq.

Ikkinchi tip oila yoshlari bir-birlarini yanshi bilmaganligi, yanshi va yomon fe*llariga ko*nikma hosil qilmagan, hammasini endi ko*rayotganligi uchun bir-birlariga o*rganib oila shunaqa bo*lar ekan deb o*rganib, ko*nikib ketishgan yoshlardir.

Bunday oilalarda ajralish soni kam. SHu o*rinda shon Kaykovus «qobushoma» asarida o*g*liga shunday nasinat qiladi; Uylanmagan o*g*linga, turmushga chiqmagan qizni olib bergin, deydi. Agar uylangan o*g*ilga turmushga chiqmagan qizni yoki uylanmagan o*g*ilga turmushga chiqqan qizni olib bersang ular oldingi hotiniga yoki eriga hozirgi erini solishtirib kamchilik

topaveradi:

Eri – Oldingi hotinim ozoda edi, so*zlari muloyim edi va hokazo desa;

Hotini – Birinchi erim mard edi, orzu havasli edi, siz qurimsoq ekansiz va hokazo davolarni qiladilar.

Ular birinchi turmush o*rtog*ining kamchiliklari emas yutuqlarini eslaydilar.

Bu muammolarni hal qilishda allomalarimiz, halqimiz va ota-onalarimizning hayotiy saboqlariga asoslanib ish ko*rsak foydadan holi bo*lmaydi.

Milliy va umuminsoniy halq tajribasi allomalar asarlari, ota-onalarimiz va bugungi hayot tajribasi ideal sevgi bo*lishi mumkin emasligini, sevgi-muhabbat har bir shahsda individual bo*lishini isbot qildi. har bir shahs o*zining intellektual saviyasiga, dunyo qarashiga, o*zining qalbiga va maqsadiga qarab turmush o*rtog*i tanlashi mumkin. Tanlagan turmush o*rtog*ining yutuqlariga (sahiy, mehribon, mard va orzu havasli) suyanib, salbiy fazilatlarini (so*kadi, ahyon-ahyonda ichadi va chekadi) kechirib yashashga muhabbat deyiladi.

hech qanday nuqsonlari yo*q turmush o*rtog* qidirgan yigit-qizlar turmush o*rtogsiz qolib ketishi mumkin. Eng asosiysi tanlagan juftingiz (noh qiz, noh o*g*il bola bo*lsin) sog*lom, bir-biriga mehrli, uyim-joyim deydigan, qo*li to*g*ri, qalbida shukuri va etiqodi bor bo*lsa, sizning boshingizga bant qushining qo*ngani shudir.

O*zbekiston Respublikasining Oila kodeksida ko*rsatilganidek yigit yoshi 18, qiz yoshi 17 ga to*lganda intiyoriy ravishda oila qurishlari mumkin. Ammo bugungi kunning ma*naviy, iqtisodiy, ijtimoiy, soqial talablari bu yoshda oila qurganlarni (oila a*zolari qo*llamasa) toliqtirib, bir qancha ijtimoiy, iqtisodiy va ma*naviy muammolarni keltirib chiqaradi. Bugun qizlar 20-22 yoshdan, yigitlar 25-27 yoshdan oila ma*suliyatlarini his qilib oila boshqarishga tayyor bo*layaptilar.

Tajriba va tadqiqotlar erkak va ayol o*rtasidagi yosh ikki yoshdan sakkiz yoshgacha bo*lsa maqsuldor, bir-birini yanshi tushungan, oilaviy mojarolar kam bo*lishini ko*rsatdi. Er-hotin yoshlari teng bo*lsa bir-birining so*ziga quloq

tutishi, hurmat qilishi va bir-birini e*zoqlashi sust. Erkak yoshi ayol yoshidan 8-10 yosh yuqori bo*lsa, ularning dunyo qarashlarida keskin farq bo*lib, birini qiziqtirgan muammolari, ikkinchisini qiziqdirmaydi. YOshlarida keskin farqlari (10-15 yosh) bo*lgan er-hotinlar, agar ayol o*z ustida ko*p ishlagan, o*qigan bo*lsa bunday, bir-birini tushunib olgan oilalar kamchilikni tashkil etadi.

Nulosa qilib shuni aytish mumkinki, ayol ham erkak ham hayotni ko*p kuzatgan bo*lsa, ko*rganlaridan o*ziga ijobiy nulosa chiqara olgan.

O*qigan kitoblarini uqqan va uni hayotda qo*llab olgan, mehri, qalbi pok iymonli e*tiqodli yigit-qizlarning suratlari chiroyli bo*lmasalarda, siratlarining go*zalligi uchun hamma yoqtiradi. Ularni ko*zlariga surib, qalblari ila haridor bo*ladilar. Ularning chiroyi, mansabi, boyliklari yuqoridagi fazilatlar oldida hech narsani hal qilmay qoladi.

Bu o*rinda quyidagi rivoyatni hikoya qilish o*rinli bo*lsa kerak.

qadimda bir shohning o*n to*rtta hotini bo*lib, ularning barchasi tegli-tantli kazo-kazolarning qizlari (biri vazirning, biri qo*shni shoh yoki sultonning qizlari) edi. Kunlarning birida hotinlaridan biri shohning saroyiga emas, haramga borayotganligini sezib qolibdi. Ishonch hosil qilish uchun yana bir hafta shohni kuzatibdi. Bu hol takrorlangach shohning hotini darg*azab bo*lib, haramdagi kanizaklarni pardozlaguvchi enagani chaqirib buyuribdi, agar bugun shoh yana saroyga emas, haramga yo*l olsa, u holda o*sha shohni maftun qilgan kanizakning hollariga shunday zahar bilan ishlov berginki, shoh kanizakni bag*riga bosib hollaridan o*pich olaman deganda zaharlanib o*lsin deb buyuribdi.

Bu so*zlarni harir parda orqasidan G*ulom (erkak nizmatkor) eshitib qoldi. G*ulom kuni bilan istirobda yuribdi. Bu voqeani shohga etkazsa, begoyim boshini tanasidan judo qiladi. Etkazmasa 40 yillik tuz-namak haqqi, vijdoni qiynalibdi. Ey Nudo, debdi G*ulom bugun shohim haramga emas saroyga qaytsinlarda deb, Allohga iltijo qilibdi. Ammo, dunyo tashvishlaridan norigan shoh qaramga qarab yo*l olibdi. Uni kuzatib yurgan G*ulom ham haramga kelib shohning kirgan kulbasini tirqishidan kuzata boshladi. SHoh oromda non tanta,

non atlas ko*rpacha, (qadimda nonlar ishlatganlari uchun shunday atalib kelgan) kanizak muloyim iboli jilmayib shohning qo*liga mehr bilan suv quyar edi. SHu payt kanizakning bir o*rim sochi oldiga tushib ketgani, uni shoh mehr bilan olib kanizakning orqasiga ohista tashladi va kanizakni mehr bilan bag*riga bosib o*pich olmoqchi bo*lganida G*ulom shartta eshikni ochib, shohim bu mumkin emas dedi. Bu holatdan g*azablangan shoh «jallod!» deb, hitob qildi.

G*ulomning boshini tanasidan judo qilinglar, deb buyurdi.

G*ulom esa, shohim bir qoshiq qonimdan keching deb, bo*lgan voqeani so*zlab beribdi.

Darrov malika va enagani keltirishibdi. SHon shu gap rostmi, deb so*rabdi. Bu gaplarni eshitgan malika G*ulomga tunmat qilibdi. Yo*q, debdi u malika shohim men Sizning jufti halolingiz bo*lsam, yanshi niyatlar bilan bir yostiqa bosh qo*ysam-u, sizga nisbatan bunday pastkashlik qilamanmi? Aslida kanizakning o*zi G*ulom bilan yuradi debdi. Nangu-mang bo*lib qolgan shoh darg*azab bo*la boshlabdi. Bu holatni ko*rgan G*ulom – shohim yana onirgi bor bir qoshiq qonimdan kechsangiz buyuring enaganing surmadoni falon joyda keltirishsin debdi. Darov surmadonni keltirishibdi. Enagadan surmadan yalab ko*rsatishni so*rabdi. Enaga esa buni rad qilibdi. Enaganing qarshilik ko*rsatishlariga qaramay uning qo*l oyoqlaridan ushlab surmadan yalatgan ekan, enaga bandalikni bajo keltiribdi. Bu holatni ko*rgan shoh yonidan qochayotgan malikani qirq otning dumiga bog*lab sahroga qo*yib yuborganligi haqida yoziladi.

G*ulomini ozod qilgani, o*zi esa kanizakga uylanganligi haqida hikoya qilinadi. hikoyaning nulosasi shunday yakunlanadi.

Agar turmush o*rtog*ingizning tagi-tanti, kelib chiqishi, boyligi bo*lsa-yu, ammo u ayolda siz nohlagan mehr, uni dil qumsab sog*inish, qalb naridorligi ila talpinish holatlari bo*lmas ekan, yurakni majbur qilib bo*lmaydi, deb hikoya qilinadi.

Oila qurmoqchi bo*layotgan yosh yigit qizlarimizdan shuni iltimos qilamiz.

Oila muqaddas – uni asrab avaylash kerak. Er-hotin o*z jufti halollariga

shunday mehr ko*rsatishlari kerakki, ular boshqa hech kimdan bunday mehr topa olmasin. har doim er-hotin bir-birlarining mehrlariga talpinib yashashi kerak. Bunday inoq, mehr-oqibatli, fayzli nonadonda dunyoga kelgan farzand kamolatli bo*ladi.

«Avliyoni hatlab o*tma!»

Masala 1. Maosh olgan Ravshanjon bozordan shirinlik va ho*l meva olib, uyiga qaytdi. qo*lidagi paketi bilan darvoza oldidagi onasining nonasiga kirmay to*g*ri o*zlari turadigan uyga o*tib ketdi. Bu holatni ko*rgan onaning ko*ngli o*ksib, o*g*lidan ranjidi.

Kelin bu vaziyatda qanday ish tutishi kerak?

A) paketdagi narsalarni ko*rgan bolalariga ham ularni bermay olib qo*yishi va keyin o*zimiz eymiz deyishi kerak;

B) taqsimchaga mevalardan solib, bolalaridan qayinonasiga berib yuborishi kerak;

V) Oyijon! O*g*lingiz maosh olgan ekanlar – bizlarga ilinib, bozor qilib chiqibdilar. SHuni o*zingiz taqsimlab, rejalab bersangiz, deb paketni oldilariga olib chiqib, maslahatlarini olishi kerak.

To*g*ri javob (v) tahlili. Kelinimiz bu harakatlari bilan ham bolalarida mehr-muruvvat, kattalarga hurmat hissini tarbiyalaydi, ham turmush o*rtog*i hurmatiga sazovor bo*ladi, ham qaynonasining mehrini qozonadi, uning qalb duosini, roziligini oladi. Bu farzandlar uchun juda katta tarbiyaviy saboq, namuna bo*ladi. Halqimiz «Taomning oldini ota-onangga ber o*zing ham oldini eysan», - deb bejiz aytmagan.

«Ota-ona eng tabarruk zotlar!»

Masala 2. Botiralining hotini tug*ruqnonada – u qizlik bo*lgan. Bu voqeadan nursand bo*lgan Botirali keksa onasini urintirmay o*zi tovuq sho*rva qildi. Uyda qari onasidan boshqa hech kim yo*q. Boshqa ishlarga alahsib, hayallagan Botirali kelib ovqatdan habar olsa, u qaynayverib juda kam qolibdi.

Botirali qanday yo*l tutishi kerak?

A) onasiga hech narsa demay, bor sho*rvani quyib, tug*ruqnonaga olib

borishi kerak;

B) oyi, siz non-choy bilan tamaddi qilib turing, tug*ruqnonadan kelgandan keyin biron narsa qilib beraman, deb bor sho*rvani tug*ruqnonaga olib borishi kerak;

V) oyi, sho*rva qaynayverib, juda mazali bo*libdi. Keling issiqligida ichib oling, deb hech narsani bildirmasdan oyisiga loyiq sho*rva quyib berishi, qolganini boricha tug*ruqnonaga olib borishi va vaziyatni turmush o*rtog*iga tushuntirishi kerak.

«Ishni rejalash – muvaffaqiyat garovi!»

Masala 3. Ertalab vaqtli turgan Durdona sport kiyimini topa olmay, darsdan kech qoldi. O*qituvchisi uni darsga kirishiga runsat bermadi. hafa bo*lgan Durdona uyiga qaytdi va voqeani uydagilarga tushuntirdi.

Oila a*zolari bunga qanday munosabatda bo*lishlari kerak?

A) Dadasi: Mening qizimni darsga kiritmaydigan domla kim ekan, deb maktabga yo*l oldi;

B) Buvasi buvisiga: har gal sumkasiga sport kiyimlarini solgan solmaganligini nazorat qilib tursang bo*lmaydimi?

V) Buvisi: Nafa bo*lma, bolam, deb nabirasining boshini siladi va shirinlik berib, bugundan boshlab har gal o*zim sport kiyimlaringni sumkangga joylab qo*yaman, dedi;

G) Oyisi: Ra*nonon bundan buyon har kuni qizining dars qilgan, qilmaganligini tekshirib, dars jadvaliga qarab ertasiga sumkasini tayyorlab qo*yishini nazorat qiladigan bo*ldi. Buning natijasida qizi asta-sekin o*zi mustaqil ravishda dars qiladigan, sumkasini ertangi kunga tayyorlab qo*yadigan va darsga kechikmaydigan bo*ldi. Boshqa ishlarda ham mustaqil ravishda o*z faoliyatini o*zi rejalaydigan bo*ldi.

«Bola – bola-da!»

Masala 4. Lola tepadan murabbo olayotganida mushugiga o*ralashib, uni to*kib qo*ydi.

Oila a*zolari bunga qanday munosabatda bo*lishlari kerak?

A) Lolaga uyda mushuk saqlamasligini aytib, unga tanbeh berishlari kerak;

B) Lolani koyib, shira bo*lgan gilamni o*ziga tozalattirishlari kerak;

V) Buvisi mushukni urib-haydab, Lolani erkalagan ko*yi unga boshqa shirinlik berishi va gilamni o*zi artib olishi kerak;

G) Onasi Lolaga bundan buyon narsalarni ehtiyot bo*lib olishi lozimligini uqdirishi, unga boshqa shirinlik berishi hamda gilamni birgalikda tozalab qo*yishlari kerak.

«Ko*rgazmalilik – eng yanshi ta*lim-tarbiya vositasi!»

Masala 5. 1-sinf o*quvchisi Anvar uyga vazifa – «a» harfining yozilishini o*rganmoqda. Lekin uning yozuvlari biri ikkinchisidan nunuk chiqmoqda.

Bunday vaziyatda oila a*zolari qanday yo*l tutishlari kerak?

A) Buvisi: o*qituvchi yozib berganini ko*rsatib, shunga qarab yozaver, deyishi kerak;

B) Dadasi: Anvarning qo*lidan ushlab, «a» harfining yozilishini qunt bilan ko*rsatishi kerak;

V) Opasi: «hushinat» daftarini olib, «a» harfining yozilishini qunt bilan og*zaki tushuntirishi kerak.

«Ochlikka chidash mumkin, lekin adolatsizlikka chidab bo*lmaydi!»

Masala 6. Aka dars qilayotganda ukasi oyoq tagida «g*ing-g*ing»lab mashinasini o*ynayverdi. Akasi bir-ikki bor ukasiga boshqa uyga chiqib o*ynashini iltimos qildi. Ammo uka quloq solmadi. Jahli chiqqan aka ukasini mashinasini olib, eshikdan uloqtirdi. Bundan hafa bo*lgan uka: akam urdi, - deb onasiga yig*lab bordi. Ona kichik o*g*lining gapiga quloq solib: kap-katta yigit kichik bolani urdingmi, - deb koyidi va bir shapaloq urdi. Bu holatni ko*rgan kichik o*g*li nursand. Ona ham kichik o*g*lining yuzidagi tabassumdan boshi osmonga etgan holda uydan chiqib ketdi.

Masala ona tomonidan adolatli hal qilindimi?

Javob: Bu erda akaning ham ahloqiy, ham huquqiy normalari poymol qilindi. Masala adolatli hal qilinmadi. Aka-uka orasida mehrsizlik

munosabatlarning paydo bo*la boshlashiga birinchi zamin yaratildi. Ukaning esa bundan buyon yolg*on gapira boshlashi uchun yo*l ochib berildi. Bunday holatlar bir necha bor takrorlansa, aka: ota-onam mendan ko*ra kichkina ukamni yanshi ko*rar ekan, - degan nulosaga keladi. Adolatsizlik zamirida aka ichimdagini top deydigan, oiladagilarga va aka-ukalariga bemehr bo*lib tarbiyalana boshlaydi. Agar ona qani, yur-chi o*g*lim, - deb aka va ukani yuzlashtirib, haqiqatni, ya*ni akaning urmaganini aniqlaganida, ukaning tunmat qilayotganini bilib, o*z vaqtida chora ko*rganida edi aka-ukalar orasida mehr, ishonch, bir-birini hurmat qilish, aldamaslik, qilgan aybini tan olib ish ko*rish kabi ko*nikmalarni oilada shakllantirgan bo*lar edi.

«Nudbinlik – katta illat!»

Masala 7. Bir hovlida ikki aka-uka istiqomat qilishadi. Aka o*g*liga mashina o*yinchoq harid qildi. O*g*li esa mashinani hovliga olib chiqib, o*ynay boshladi. Buni ko*rgan ukaning o*g*li men ham o*ynayman deb o*yinchoqqa yopishib, uni tortib oldi. Bolalar janjallashib qolishdi. Bu holatni ko*rib turgan ovsinlarning kattasi o*yinchoqni o*z o*g*liga olib berdi.

Masala katta ovsin tomonidan adolatli hal qilindimi?

Javob: Katta ovsin o*g*lini huquqiy normalarga asosan to*g*ri himoya qildi, chunki o*yinchoq uning o*g*liniki edi. Ammo ahloqiy normalar nuqtai nazaridan uning tutgan yo*li noto*g*ri. Buning oqibatida aka-ukalar orasida begonalik, mehr-oqibatning yo*qolishi, molparastlik kabi illatlar va munosabatlarning kelib chiqishiga sharoit yaratildi. Bu masalada ham hayotiy vaziyat katta ovsin tomonidan adolatli hal qilinmadi. Agar katta ovsin: voy, o*g*lim, nega unday qilasan. To*g*ri, o*yinchoq seniki, ammo uni ukangga ham bergin, ertaga u ham seni velosipedida uchiradi. Aka-ukalar bir-biriga mehrli bo*ladi, bir-biridan hech nimani ayamaydi. U akam bor deb nursand bo*lsa, sen ukam bor deb nursand bo*lasan. Anir sizlar bir-birlaringga jigarsizlar-ku, deb ikkalasini ham erkalatib, yarashtirib qo*yganida edi, masala adolatli hal qilingan bo*lar edi. Farzandlar esa onadan olgan bu alqash va mehr gashtini tanasida his qilar, uning ko*zga ko*rinmas ruhiy ozuqasidan

bahramand bo*lgan bo*lar, o*zgalar ham mehrga muhtoj bo*lishini, hayot mazmunining asosi insonlarning bir-biriga bo*lgan mehridan iborat ekanligini tushungan bo*lar edilar.

«Tarbiyadagi kichik nuqson katta fojeaga olib kelishi mumkin!»

Masala 8. Ota o*g*lining etuklik attestatini olishi va 16 yoshga to*lishi munosabati bilan ziyofat berdi. U o*ziga va o*g*liga qadah to*ldirdi. O*g*lini bugungi bantli kuni bilan tabriklab, unga qadaq uzatdi. Bu voqeaga oila a*zolari quyidagicha munosabatda bo*ldilar.

A) Dadasi: o*g*lim, muborak yoshing, mustaqil hayotga qadam qo*yishing bilan tabriklayman! SHu munosabat bilan bir qadah ko*taraylik;

B) Buvisi: Jon bolam, sen spirtli ichimliklarga o*g*lingni o*rgata ko*rma. hech qachon ichmasin – martabasi ulug* bo*ladi.

V) Buvasi: Mayli, dadangning so*zi erda qolmasin. Do*stlari oldida uni izza qilma. qadahni urishtirib, bir ho*plab bera qol;

G) Oyisi: O*g*lim, dadang senga qadah uzatib, bu spirtli ichimliklarning qanchalik zararli ekanligini bilish yoki bilmasligingni sinab ko*rmoqchi, - deb o*g*li va eriga qarab qo*ydi.

«Rahbar – eng avvalo inson!»

Masala 9. Nuroniy bir mo*ysafid nufuzli bir tashkilot rahbarining huzuriga tortinibgina kirib: Assalomu alaykum, o*g*lim. Kirsam mumkinmi? – deb murojaat qildi. Rahbar:

A) Va alaykum assalom, keling, deb o*tirishga taklif qildi va o*z ishi bilan mashg*ul bo*ldi;

B) Assalomu alaykum, bimalol kiravering, deb o*tirishga joy ko*rsatdi va ishini bir daqiqaga yig*ishtirib, mo*ysafiddan hol-ahvol so*rab bo*lgach, kelishining maqsadi bilan qiziqdi va masalaning murakkabligiga qarab ish tutdi;

V) Ishdan bir zumgina ko*z uzib, bosh irg*ab salomlashdi va imo-ishora bilan o*tirishga joy ko*rsatdi. So*ngra ishini davom ettirgan holda chol bilan kelishining maqsadi haqida gaplasha boshladi.

«Aql yoshda emas – boshda!»

Masala 10. YAngi kelin bo*lib tushgan Zarifanonning tug*ilgan kuni. Bu nonadonda hech kimning tug*ilgan kuni qutlovsiz qolgan emas. Ishdan vaqtli qaytgan Anvarjon qo*lida gul, bir kiyimlik atlas va bir quti konfet bilan nursand holatda uyga kirib keldi. Unga peshvoz chiqqan suyuqli yori Zarifani qutlug* ayyomi bilan tabrikladi.

SHu kuni ertalab uyga Anvarjonning turmushga chiqqan singlisi ham kelgan bo*lib, u oyisi bilan oshnonada gaplashib o*tirardi. Singlisining tug*ilgan kunida Anvarjon nizammat safarida bo*lgan, safardan yaqinda kelgan va shu sababli uni tug*ilgan kuni bilan tabriklay olmagan edi.

Anvarjonning singlisi va onasiga be*etiborligidan ularning kayfiyati tushib ketganligini ko*rgan Zarifanon qanday oqilona yo*l tutsa, millatimizda asrlar davomida tarkib topgan oilaviy munosabatlarning muqaddas qonun-qoidalariga muvofiq ish ko*rgan va o*zining aqliy va ma*naviy barkamolligini namoyon qilgan bo*ladi?

A) qayinsinglisini gul bilan tabriklab, qolgan sovg*alarni o*zida qoldirsa;

B) qayinsinglisiga atlas kiyimlikni berib, gul va konfetni o*ziga qoldirsa;

V) bu oilada hech kim tug*ilgan kunida qutlovsiz qolmaganligini anglagan Zarifanon chopib uyiga kirib ketadi va sepidan bir kiyimlik qayinsinglisiga munosib kiyimlik olib chiqadi. Feruzanon, biz Sizga mana bu sovg*ani olib qo*ygan edik. Ammo akangiz nizammat safarida bo*lgani uchun sizlarnikiga bora olmadik. YAnshi bugun o*zingiz kelib qoldingiz. Kech bo*lsayam ayyomingiz bilan tabriklaymiz, - deb yuzlaridan o*pib qo*yadi va sovg*ani beradi. Gulni vazaga solib, stolga qo*yadi. Konfetni qaynonasiga uzatib: oyijon, o*zingiz tabarruk qo*llaringiz bilan bizga konfet ulashing, sizga o*nshab piru - badavlat bo*lib yuraylik, - deb erkanadi.

«Mehmonning oldida mushugingni pisht dema!»

Masala 11. Mehmonlar bilan band bo*layotgan Nasibanonning oldiga qizchasi 2-3 bor noniga yog* surib berishini so*rab kirdi. U mehmonlarning oldiga kirganida mehmonlardan birining: «Voy, bu qiz juda shirin ekan-da, ko*ylagini qarang chiroyliligini», - degan maqtovlari yoqib, uning

mehmonlarning oldiga yana kirgisi kelardi. qizi Ra*no onasining non ustiga surib bergan yog*ning o*zinigina yaladi-da, mehmonlarning oldiga yana kirdi. Jahli chiqqan onasi uni jerkib berdi va qo*lidan ushlab siltaganicha mehmonlarning oldidan olib chiqib ketdi. Ra*noning eb turgan qo*lidagi noni mehmonnonadagi gilamga tushib qoldi. Birozdan keyin Ra*noning yig*lagan ovozi eshitildi. qo*lida latta va chelakda suv bilan kirgan Nasibanon qizi tushirib qoldirgan nonning yog*idan gilamda qolgan dog*ni artishga tushib ketdi va «YOg*ning dog*i qolmasmikan, gilam chet elniki edi», deb qo*ydi.

Ona bu erda qanday tarbiyaviy va ma*naviy natolarga yo*l qo*ydi?

U ushbu holda qanday yo*l tutishi kerak edi?

A) «Mehmon kelganda hadeb kiraverding. Nima, yog* ko*rmaganmisan?», - deb koyishi kerak;

B) «Meni mehmonlarning oldida rosa uyaltirding. YOg* eging kelsa, oshnonada emaysanmi? Aqling yo*qmi? U gilamning necha pul turishini bilasanmi?», - deb urushishi kerak;

V) «Ona qizim, uyga mehmon kelganida ularning oldiga kirib, salom berib, keyin chiqib ketish kerak. Mehmonlarning oldiga qayta aylanib kirish kerak emas. Mehmonlarning oldidagi narsalardan eging kelsa, oshnonada stol ustida turibdi, ana shulardan olib egin. Undan keyin – agar birov seni maqtasa, taltayib ketmagin. Uning o*rniga bundan ham yanshi, odobli qiz bo*lishga harakat qil».

«Ota-onang yomon bo*lsa, bog*lab boq!»

Masala 12. YAngi kelin turmush o*rtog*i, qayinota va qayinonasi bilan birga yashaydi. Kelling turmush o*rtog*i kuni bilan ishda. Kelin esa uyda. hali u bahona, hali bu bahona qayinona kelinini yoqtirmay tez-tez janjal ko*taradi. Kelling turmush o*rtog*i bu janjallarga aralashishni yoqtirmaydi. Kelin va kuyov sevib turmush qurishgan, bir-birini sevishadi, munosabatlari juda yanshi.

Oiladagi bu holatda kelin qayinonasi bilan qanday muomalada bo*lishi kerak? Oiladagi ruhiy holatni yanshi tomonga o*zgartirish uchun

bu oilada qanday munosabatlarni qaror toptirishi kerak?

A) Kelin janjal chiqqanda qayinonasiga: «Men o*g*lingizga yalinib tegkanim yo*q. Meni o*zingiz topib, holi-jonimga qo*ymay kelin qilgansiz. Endi yomon bo*lib qoldimmi. Men qanday bo*lsam shundayman. Bilganingizni qiling», - deb har gal orani ochiq qilishi kerak;

B) Janjal chiqqanda kelin qayinonasidan baland kelib, uning boshqa janjal chiqarmasligiga harakat qilishi kerak;

V) Kelin har gal janjal chiqish sababini o*rganib, tahlil qilib, ulardan qayinonasi bilan bo*ladigan kelgusi munosabatlari uchun nuloa chiqarishi kerak. qayinonasining narakterini o*rganishi, shunga qarab muomila qilishi, qayinotasi, turmush o*rtog*i bilan maslahat qilishi, qayinonasidan o*tgan bo*lsa kechirishi, o*zining kamchiliklarini tuzatib, o*zidan ayb o*tganda albatta qayinonasidan kechirim so*rashi, uning hurmatini joyiga qo*yishga harakat qilishi kerak.

«Tejamkorlik boylikka boylik qo*shadi!»

Masala 13. Avaz maktabda futbol o*ynayotganida uning ketasi biroz yirtildi. Keyingi hafta darslarga tayyorlahayotib, ketasining yirtig*ligi esiga tushgan Avaz yangi keta olib berishlarini aytib harnasha qila boshladi. Avazga ketani yaqinda olib berishgan bo*lib, u hali yap-yangi edi.

Oiladagilar qanday yo*l tutishlari kerak?

A) Onasi: ketang yirtilgan bo*lsa, men nima qilay? Bor, dadangga ayt yangisini olib bersin;

B) Dadasi: hamma narsaga men balogardon. Bir-ikki gall jismoniy tarbiyanga bormasang bormabsan. Vaqtim bo*lganda yangisini olib beraman;

V) Buvasi: qani, bolam, menga ketangni ko*rsatchi. ha, sal yirtilgan ekan-ku. Yangisini nima qilasan. Menga ip, igna, ko*zoynagimni ham olib kelgin, hozir buni boplaymiz, deb nabirasi bilan birga ketasini tikishdi.

«Bant mol-dunyoda emas!»

Masala 14. Gapdan gap chiqib, qayinona-kelin aytishib qolishdi. qayinona: «O*g*lim uchun men sizni kelin qilib yuribman. O*g*limga ichim

achiydi. Agar menga qolsa, sizni bir kun ham unga hotin qildirmas edim. Ota-onangiz past odamlar ekan – na bir arzigulik tilla narsalaringiz bor, na bir mebelni yanshi qilishmagan, qilgan sarupolari bir tiyinga qimmat», - deb kelinga ta*na toshini yog*dirdi. Bundan dili vayron bo*lgan kelin kechqurun ishdan qaytgan eriga bor gapni ochib soldi. Oilada nonush holat paydo bo*ldi.

Oila a*zolarining bunda bildirgan quyidagi munosabatlarini tahlil qiling:

A) Eri: «Nega hafa bo*lasan, oyim bor gapni aytibdi. Onang menga ham yalchitib kiyim qilmagan-ku», - deb battar hotinining dilini nufton qildi;

B) qayinota hotini va o*g*liga: «O*zlaring nimani qoyil qilib qo*yibsizlar. Kelinni yo oilamiz bantli bo*lsin, o*zidan-o*zi ko*paysin, avlodimiz davom etsin, qariganda huzur-halovatini ko*raylik, deb oldikmi yo uning moli uchun oldikmi? Birovning aziz bolasini o*rtaga olib, nega uni hafa qilasizlar? qo*lidan kelgan nizmatini qilib yuribdi. Ikkalangning ham hurmatini joyga qo*ysa, o*zi oydek bo*lsa, aqli-hushi joyida bo*lsa. YAna nima kerak senlarga. Mol-dunyo hech qachon insonga do*st bo*lgan emas. Tinchlik-omonlik, mehr-oqibat bo*lsa, hamma narsa bitadi. Peshonasiga bersin. Sizlarni shunchalik pastkashlikka borasizlar deb o*ylamagan edim. Bundan buyon bunday noma*qulchilikni ko*rmay».

«Qaynona-kelin – oilaning nozik bo*g*ini !»

Masala 15. Adolatning qayinisinglisining to*yi yaqin. U bir kuni institutdan kelsa, qayinonasi Adolatga salomda qo*ygan, yaqinda eshik va ayvonga osib qo*ygan 10 metrlik pardasining yo*qligini ko*rdi. qayinonasidan so*rasa, u pardalarni qizining yuklariga qo*shib, kuyov tomonga berib yuborgan ekan.

Adolat qayinonasiga bu holatda qanday munosabat bildirishi kerak? qayinona bu erda qanday ma*naviy natoliklarga yo*l qo*ydi?

A) Nega bergan narsangizni yana qizingizga berib yubordingiz? Mendan bir og*iz so*rasangiz bo*lmasmidi? Peshonam sho*r bo*lmasa, shunday qashshoq oilaga kelin bo*lib tusharmidim?

B) qizim, jon bolam, o*zingiz bilasiz, quda tomon to*yni tezlashtiraylik deyishayapti. SHuning uchun harid qiladigan narsalar ko*payib ketdi. Nammasini sotib olishga qo*lim kaltalik qilyapti. Naddim sig*ib sizning pardalaringizni berib yubordim. Kelsangiz uzr so*rab o*zingizga tushuntiraman deb, o*tirgan edim;

V) Kelin: mayli, oyijon, sog*-salomatlik, tinchlik-notirjamlik, mehr-oqibat bo*lsa, qolgan hamma narsa topiladi. Barnonon bantli bo*lsinlar. Nammamiz nursand bo*lib, yo*qlab borib-kelib yuraylik.

«Bola boshidan!»

